O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida

UDK 667.24

ABDULLAEV ALIMARDON XAYDAROVICH

Rishton kullolchilik san`atida milliylik va zamonaviylik

5A110801 – Tasviriy san`at va amaliy bezak san`ati

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: **dots. Jabbarov B. G'.**

Namangan-2017

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

I – bob. Amaliy san`at turlari va maktablari

1.1. Kulolchilik san`atining rivojlanishi, tarkib topgan uslub va maktablar..... 12

1.2. Amaliy san`atdagi an`analar va xalq ustalarining pedagogik merosi..... 19

1.3. Kulolchilik san`atida etnik-madaniy an`analar 26

I – bob bo`yicha xulosa..... 31

II-bob. Rishton kulolchilik san`ati: an`ana va islohotlar

2.1. Rishton kulolchilik san`atining o`ziga xos tomonlari 32

2.2. O`zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan san`at arbobi usta Sharofiddin Yusupov ijodi..... 35

2.3. Mohir kullol, usta Rustam Usmonov ijodida milliylik..... 48

II – bob bo`yicha xulosa 58

III-bob. Mustaqillik yillarida kulolchilikka berilgan e`tibor

3.1. Usta Alisher Nazirov ijodida milliylik..... 59

3.2. Usta Odiljon Nigmatov ijodi misolida..... 69

3.3. Zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda kulolchilik san`atining tutgan o`rni**.**..... 79

III – bob bo`yicha xulosa 88

Umumiy xulosa va tavsiyalar 89

Foydalanilgan adabiyotlar..... 92

Ilovalar 95

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi

O`zbekiston Respublikasi o`z mustaqilligiga erishgandan so`ng barcha sohalarda juda katta isloxotlar amalga oshirildi va barcha jabhalarda muvaffaqiyatlarga erishib kelinmoqda. Ko`plab sohalarda bo`lgani singari san`at, ilm-fan va ta`lim sohalarida ham buyuk ishlar amalga oshirildi. Jumladan, xalq hunurmandchiligi va kulolchilik sohasida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Milliy xunarmandlar uchun soliq imtiyozlari ham alohida davlat miqyosida ko`rib chiqildi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan san`at va madaniyatga, aholi turmush tarzini yaxshilashga juda katta e`tibor qaratildi. Jumladan, "O`zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida"gi farmoni (1997 yil 23 yanvar), "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atni yanada rivojlantirish davlat chora-tadbirlari to`g'risida"gi farmoni (1997 yil 31 mart), "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g'risida"gi farmoni (1998 yil 12 yanvar`) hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ham shular jumlasidandir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida yuksak ma`naviy va ahloqiy talablarga javob beradigan, raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hamda ularning sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko`tarish masalasi ilgari suruldi.

Bugungi rivojlanish davrida milliy hunarmandchilikka e`tibor ortib borayotgan bir vaqtda kulolchilikka ham e`tiborni yanada oshirib, ularning turfa xilligi, chiroyliligini, xaridorgir qilib ko`paytirishga katta hissa qo`shishimiz kerak.

Agar hozirgi zamon o`zbek xalq amaliy san`atiga nazar tashlaydigan bo`lsak, xalq ustalarining estetik didini ifodalovchi mahorati, tajribasiga tayangan holda yaratayotgan badiiy buyumlari timlosida ko`rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda milliy hunarmandlarga soliq imtiyozi dastlab O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1997 yil 31 martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan

qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g'risida"gi PF-1741-sonli Farmoniga asosan tadbiq etilgan bo`lib, keyinchalik ushbu imtiyozning amal qilish muddati birinchi Prezidentimizning tegishli Farmonlariga asosan uzaytirib kelindi.

Jumladan, O`zbekiston Respublikasi birnichi Prezidenti I. A. Karimovning 2010 yil 30 martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini rivojlantirishni yanada qo`llab-quvvatlash to`g'risida"gi PF-4210-sonli farmonida uy sharoitida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`ati buyumlarini ishlab chiqarish bo`yicha "Hunarmand" uyushmasi a`zolari - yakka tartibdagi tadbirkorlarga belgilangan qat`iy soliqni to`lash yuzasidan soliq imtiyozining amal qilish muddati O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PF-4399-sonli farmoniga asosan 2014 yilning 1 yanvariga qadar uzaytirildi.

Shu o`rinda ta`kidlash joizki, mazkur imtiyoz O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2005 yil 28 martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g'risida"gi PF-3588-sonli farmoni bilan tasdiqlangan hunarmandchilikning asosiy 25 ta faoliyat turi ro`yxati asosida qo`llanilgan.

Tadqiqot mavzuimiz esa xunarmandchilik faoliyat turlarining sopol buyumlar (8) va sovg'a esdalik buyumlari tayyorlash (25) ni o`z ichiga qamrab oladi. Qolaversa, naqshli sirli bezaklar berish (19)ga ham bevosita daxldor hisoblanadi.

Bundan tashqari, O`zbekiston Respublikada "Oilaviy tadbirkorlik to`g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo`lib, unda oilaviy korxona o`zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum bo`yicha yagona soliq to`lovini to`lashdan ozod qilinishi belgilandi. Rishton kulolchilik san`ati ham oilaviy tadbirkorlik sohasini o`z ichiga oladi.

Bundan tashqari birinchi Prezidentimiz isloxotlarni amalga oshirishda biz yoshlarga katta ishonch bildirganlar. SHu nuqtai nazardan qaralganda biz yoshlar ham o`z bilim, ko`nikma va malakalarimizni Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligiga bag'ishlashimiz zarur. Buning uchun olgan bilimlarimiz asosida

yangi-yangi maxsulotlar olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bilan shug'illanishimiz va shu bilan ushbu sohani rivojiga o`z xissamizni qo`shishimiz zarur.

Shundan kelib chiqib, ushbu magistrlik dissertatsiya ishi, qadimdan kundalik turmush tarzimizda keng qo`llanilib ustoz-shogird maktabi asosida avloddan-avlodga o`tib kelayotgan hamda O`zbekiston kulolchilik san`atini olamga tanitishda o`zining munosib hissasini qo`shib kelayotgan Rishton kulolchilik san`ati, uning etuk vakillari hamda uni o`ziga xos tomonlari tadqiq qilishga qaratilgandir.

Mavzuning o`rganganlik darajasi

Kulolchilik san`atining insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'liqligi azal - azaldan arxeologlar va san`atshunoslar, olimlarni unga bo`lgan qiziqishini ortirib yuborgan. Chunki, kulolchilik san`ati va uni tarixini o`rganish insonlarni kundalik turmush tarzini, yashash sharoitini, urf-odatlarini, qarashlarini aniqlashga katta yordam beradi.

Adabiyotlarni tahlil qilishda ma`lum bo`ldiki, sopol buyumlardan foydalanish temir, mis yoki shu kabi boshqalarga nisbatan inson salomatligi uchun foydali hisoblanadi. Qolaversa, qadimdan ota-bobolarimiz arpa, sholi, bug'doy kabi boshoqli donlarni saqlashda sopol ko`zalardan, xumlardan foydalanib kelishgan. CHunki, boshoqli donlarni sopol idishlarda saqlash jarayonida ularning sifati, tarkibi umuman o`zgarmaydi. Sabzavot va mevalar ham sopol buyumlarda yaxshi saqlanadi. Ammo, Rishton kulolchilik san`ati va uni kelib chiqish tarixi to`g'risidagi ma`lumotlar etarli darajada emas. Hattoki, ustazodalar sulollasining shajarasi ham tuzilmaganligi ma`lum bo`ldi. Rishtonlik ustalar erishgan yutuqlar, Vatanimizda va undan tashqarida qatnashgan ko`rgazmalar haqida ma`lumotlar ham kam. Usta-kulollarning ijod namunalarini o`rganish va ularning o`ziga xos uslubini targ'ib qilish, o`sib kelayotgan yosh avlodga etkazish kerak. SHuning uchun ham Rishton kulolchilik san`atining tarixini va bugungi kunini o`rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotni maqsadi va vazifalari:

Rishton kulolchilik san`ati o`zbek xalq amaliy san`atning ajralmas bir qismi bo`lib, o`zining avloddan-avlodga o`tib kelayotgan qadimiy uslub va milliy an`analarini saqlabgina qolmasdan unga zamonaviylik bag'sh etgani bilan ham unga qiziqish katta hisoblanadi.

Bundan tashqari o`zbek turizmini rivojlantirishda, jumladan, Farg'ona vodiysiga xorijlik sayyoxlarni jalb etishda Rishton kulolchilik san`atining o`ziga xosligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu kulolchilik san`atining o`ziga xosligi, uning etakchi vakillari, ishlash texnologiyasi to`liq o`rganish maqsad qilib olindi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Adabiyotlardan Rishton kulolchilik san`ati, uning o`ziga xos jihatlari, hamda mashxur ustalari haqidagi ilmiy ma`lumotlarni taxlil qilish;
- O`zbekiston xududida qadimdan rivojlanib, saqlanib, avloddan-avlodga o`tib, o`zbek xalqining oltin merosi sifatida e`zozlanib kelinayotgan Rishton kulolchilik san`atini yanada chuqurroq ilmiy taxlil qilish;
- Rishton kulolchilik san`atining boshqa maktablarga mos bo`lmagan o`ziga xos badiiy tili va uslubini o`rganish;
- Usta-kulollarning ustoz-shogird maktabining qadimiy an`analari va xalq ustalarining pedagogik merosini tadqiq qilish;
- Rishton kulolchilik san`atidagi etnik-madaniy an`analarni o`rganish;
- Rishton kulolchilik san`atining rivojlanish bosqichlari va uning etuk vakillari haqidagi ilmiy ma`lumotlarni ja`mlab kelajak avlodga etkazish;
- Rishton zamonaviy kulolchilik maktabi va unda faoliyat ko`ratayotgan ustalar ijodini yoritib berish;
- Usta-kulollarning ijodiga bag'ishlab tashkil qilingan uy-muzeylarga tashrif buyurish va ularning faoliyatini ochib berish;
- Xorijda tashkil qilingan ko`rgazmalar va ularda faol ishtirok etgan ustalar haqidagi ilmiy ma`lumotlarni o`rganish;

- Xorijlik hamkorlar bilan yo`lga qo`yilgan ijodiy hamkorlik va uning natijalarini taxlil qilish;
- Rishton kulolchilik san`ati texnologiyasini ilmiy taxlil qilish;
- Magistrlik dissertatsiyasi materiallari asosida xorijda va yurtimizda ilmiy maqola chop qilish;

Bajarilgan magistrlik dissertatsiya ishimizning ilmiy va amaliy ahamiyati yana shundan iboratki, bajarilgan taqiqot natijalaridan kundalik hayotimizda shuningdek, kelajakdagi ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot ob`yekti va predmeti:

Magistrlik dissertatsiyamizning ob`ekti – Rishton kulolchilik san`ati va uning paydo bo`lishi tarixi, asarlardan asrlarga o`tib kelayotgan an`anaviy ustoz-shogird maktabi, mashxur usta-kulollarning tajribalari va ularni bugungi kundagi ahamiyati, zamonaviy maktab yaratgan mashxur usta-kullollar va kulolchilik san`atini Rishtonda rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta`sir etgan tarixiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlar bo`lib, ilk paydo bo`lgan vaqtdan to hozirga qadar bo`lgan jarayonni o`zida aks ettirgan davlat xujjatlari, gazeta, jurnal materiallari tadqiqot predmeti bo`lib xizmat qiladi.

Ishning o`rganilish darajasining qiyosiy tahlili:

Ma`lumki, san`atimiz va madaniyatimiz tarixini o`rganishda arxeologik qazilmalarga asoslaniladi. Asossan 1930 yillardan keyin arxeologik olimlar A. P. Oxladnikov, Ya. G'. G'ulomov, U. Ismoilov, A. Asqarov, P. T. Konoplya, V. A. Rakov, M. R. Qosimov, A. Berdimurodov, M. E. Voronets, V. I. Sprishevskiy, Yu. A. Zadneprovskiy, B. X. Matboboev, U. Raxmatov kabi olimlar tomonidan Farg'ona vodiysi xududida olib borilgan izlanishlar ushbu makonning insoniyat tsvilizatsiyasining markazlaridan biri bo`lganligidan dalolat beradi.[1] Ushbu

[1] Асқарбек Акпаров. Фарғона водийси архитектурасида амалий санъатнинг маънавий – эстетик аҳамияти. Н.; 2007. 3-бет.

zaminda odamlar juda erta kulolchilik buyumlari yasaganliklari va kundalik turmushlarida foydalanganliklari ham fanga ma`lum.

Kulolchilik san`ati o`zining badiiy-estetik qiymati va kundalik ehtiyojimizni qondiruvchi vosita sifatida ham o`ziga xos o`rin egallaydi. Amaliy san`atning tarkibiy qismi, jahon san`atining bebaho durdonasi bo`lgan kulolchilik san`ati qadimdan san`atshunoslar, xalq ustalari tomonidan katta qizish bilan o`rganib kelingan.

Jumladan, kulolchilik san`ati bo`yicha Po`lat Zoxidov, Akbar Xakimov, Saidaxbor Bulatov, Asqarbek Akparov, Surayyo Alieva, elmira Gul kabi olimlarimiz tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Biroq, Rishton kulolchiligi haqida gap ketganida uning o`rganilganlik darajasini qoniqarli darajada deb bo`lmaydi. Chunki, juda ko`plab ilmiy manbaalarda O`zbekiston kulolchilik san`ati deb Samarqand, Buxoro, Xiva, Rishton kabi kulolchilik maktablari yodga olinadi. Ammo, Rishton kulolchilik san`atining o`ziga xos tomonlari va uning etakchi vakillari haqida esa ikki-uch nafar olimlarimizning gazeta va jurnallardagi ilmiy maqollalarini ko`ramiz xalos.

Borlarining aksariyati esa aynan Rishton kulolchiligiga bag'ishlangan bo`lmay, ularda O`rta Osiyo xalqlari kulolchiligi yaxlit bir manbaa sifatida qaralgan hamda rus tilida nashr qilingan bo`lib, ularga "Sovremennaya keramika narodnix masterov Sredney Azii" (Al'bom. G. Derviz, L. Jadova, I. Jdanko, D. Mitlyanskiy. M.; 1974), "Sovremennaya dekorativnoe iskusstvo respublik Sredney azii" (A. Xakimov. T.; 1988) kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. O`zbek tilida esa aksariyati maxalliy matbuot materiallari; gazeta va jurnallardan iborat bo`lib, darslik va o`quv qo`llanmalarda esa juda ham kam ma`lumot uchratamiz. Rishton kulolchilik san`ati, unda tashkil qilingan uslub va badiiy ifoda tilini yaxshi o`rganish uchun ko`plab tadqiqot ishlari olib borilishi talab qilinadi.

Ilmiy yangiligi:

Ilmiy adabiyotlardan, gazeta va jurnal materiallaridan ma`lum bo`ldiki, Rishton kulolchiligi va uning o`ziga xos uslubini, mashxur usta-kulollar hayoti va

ijodi hamda xorijiy davlatlar bilan tashkil qilingan hamkorlik aloqalarini o`rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ishlari adabiyotlarda juda kam uchraydi.

Hozirgi kunga qadar chuqur ilmiy taxlil qilinmagan Rishton kulolchilik san`atining qadimiy, an`anaviy maktabi, unda faoliyat ko`rsatayotgan mashxur usta-kulollar hamda o`sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida kulolchilik san`atining tutgan o`rnini magistrlik dissertatsiyasida ilmiy tadqiq etilishi, mavzu yuzasidan tayyorlanadigan ilmiy maqola, ommabop risola hamda taklif va fikr-mulohazalar tadqiqotning ilmiy yangiligi hisoblanadi.

Ishning amaliy ahamiyati:

Bajarilgan magistrlik dissertatsiyasining amaliy ahamiyati shundaki, bajarilgan taqiqot natijalaridan, metodlaridan o`rta maxsus kasb-hunar ta`limida, ixtisoslashgan litseylarda o`quvchi-yoshlar hamda oliy ta`lim tizimida talabalar amaliy san`at sirlarini egallashlarida foydalanish mumkin. Bundan tashqari ta`lim tizimida, amaliy san`at fanini o`qitishda foydalaniladigan o`quv qo`llanma va darsliklarga Rishton kulolchilik san`ati haqidagi yangiliklar sifatida hamda kiritilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Rishton kulolchilik san`ati va uni tarixi, rivojlanish bosqichlari, mashxur usta-kulollar faliyatini o`rganishga oid ko`plab ilmiy ma`lumotlarni mazkur magistrlik dissertatsiyasida bir tizimga solib tadqiq etilganligi ham tadqiqotning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Shuningdek, ushbu magistrlik dissertatsiyasidan yosh kulollar, oliy o`quv yurtlarining talabalari, kasb hunar kollejlari, o`rta umumta`lim maktabi o`qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Ishning strukturasi:

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, xulosa, ilovalar, foydalangan adabiyotlardan hamda ijodiy ishdan tashkil topgan. Kirish qismida Tadqiqot mavzusining dolzarbligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ishning o`rganilish darajasining qiyosiy tahlili, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot ob`ekti va predmeti, tadqiqotning amaliy ahamiyati, ishning strukturasi bayon

etiladi. Magistrlik dissertatsiyasining har bir bobi uchta bo`limdan tashkil topgan bo`lib, ular tegishli boblarning asosiy mazmunini o`zida aks ettiradi. Xulosa qismida esa magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot bo`yicha asosiy taklif va fikr-mulohazalar o`rin olgan.

Ishning natijalari bo`yicha maqolalar chop etish;

Dissertatsiya mavzusi bo`yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari taxlili bo`yicha respublika miqyosidagi konferentsiyada tezislar, ilmiy to`plamlarda maqolalar chop etildi. Jumladan, ilmiy rahbar dotsent B. Jabbarov bilan hammualliflikda "Rishton kulolchilik san`ati va an`analari" (Ta`lim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar to`plami. II qism. T,; 2016. 200-2004 bb.) va "Moxir kulol, usta Rustam Usmonov ijodida milliylik" (Ta`lim va texnologiya. Ilmiy-uslubi maqolalar to`plami. IV qism. T.; 2016. 326-328 b.b) mavzusida maqolalari e`lon qilindi.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.

Dissertatsiya - betda bayon etilgan bo`lib, kirish qismi, uchta bob, xulosalar, - nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o`rganganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Birinchi bob - "Amaliy san`at turlari va maktablari"da kulolchilik sn`atining rivojlanishi, tarkib topgan uslub va maktablar, amaliy san`atdagi an`analar va xalq ustalarining pedagogik merosi, kulolchilik sanxatidagi etnik-madaniy an`analar to`g'risidagi ma`lumotlar, ilmiy manbaalar taxlil qilingan.

Ikkinchi bob – "Rishton kulolchilik san`ati: an`ana va islohotlar"da Rishton kulolchilik san`atining o`ziga xos tomonlari O`zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan san`at arbobi, usta Sharofiddin Yusupov va mohir kulol, usta Rustam Usmonov ieojidagi milliylik asosida yoritilgan.

Uchunchi bob - “Mustaqillik yillarida kulolchilikka berilgan e`tibor”- deb nomlanib, unda Rishtonlik kulollar Alisher Nazirov va Odiljon Nigmatovlar ijodi orqali ochib berilgan. Suuningdek, zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga o`rgatishda kulolchilik san`atining tutgan o`rni tahlil qilingan.

Magistrlik Dissertatsiyasining **xulosa** qismida bajarilgan ishlar natijalari umumlashtirilib, mavzu bo`yicha tavsiya va takliflar keltirilgan.

I-bob. Amaliy san`at turlari va maktablari.

1.1. Kulolchilik san`atining rivojlanishi, tarkib topgan uslub va maktablar.

Kulol aylantirar charxin,
Qora loy ulg'ay, san`at chin.
Bujur, lek san`ati zebo,
Bu qo`llardir, bu qo`llar.
Erkin Voxidov

O`zbek xalq amaliy san`ati o`zining qadimiyligi va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashxur hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Qo`qon va shu kabi boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy san`ati namunasi ajdodlarimiz yaratgan takrorlanmas, teran mazmunli va bebaho san`at asarlari, jahon madaniyatining durdonalaridan bo`lgan badiiy va ma`naviy merosni tashkil etadi.

Xalq amaliy san`atining ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o`ymakorligi, kulolchilik, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo`zlik, gilamchilik kabi ko`plab rivojlangan turlarining o`ziga xos tomonlari, texnologiyalari, uslublari, maktablari, umuman olganda, xalq ustalarining pedagogik merosi haligacha to`la-to`kis o`rganilgan emas.

Xalq amaliy san`atining keng tarqalgan turlaridan biri kulolchilik san`ati bo`lib, qadimdan barcha xalqlarda o`ziga xos uslub bilan rivojlangan. O`zbek kulolchiligi ham o`zining uzoq tarixiga, ajoyib an`analari, shakli, mazmuni, ijodiy jarayoni va o`ziga xos uslubiga ega. Sopol buyumlar ko`rinishi jihatidan sodda bo`lishiga qaramay qismlarining aniqligi, mutannosibligi, naqshlarining badiiy joylashuvi va mazmunining birligi, uyg'unligi o`zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan piyola, kosa, tovoq, lagan, ko`za, xurmacha, tog'ora, xum, tandir va shu kabi boshqa buyumlar, o`yinchoqlar, qurilish materiallari tayyorlaydigan soha bo`lib, u o`zining uzoq tarixiga ega. Maxsus tuproqni olovda qizdirilganda toshsimon bo`lib pishishini, undan har xil buyumlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan, ya`ni neolit davrining boshlaridayoq

bilganlar. Tuproq jahonning hamma erlarida bo`lganligi bois u keng tarqalgan bo`lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ulanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi 3-ming yillikning boshlarida ixtiro qilinganidan keyin kulolchilik bilan erkaklar ham shug'ullanishni boshlaganlar. Neolit davrida idishlarning ostki qismi uchli qilib tayyorlangan bo`lib, uni erga sanchib qo`yilgan.

O`lkamizda olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida qadimgi Varaxsha shahrida juda katta ahamiyatga ega bo`lgan va eramizdan avvalgi III-IV asrlarda ishlangan ganch o`ymakorligi va kulolchilik namunalari topilgan[2]. Unda o`simliksimon va geometrik naqshlar ishlanganligini ko`rish mumkin.

Ganchkorlik san`atining qadimiyligi haqida me`mor va san`atshunos olim P.Sh.Zohidov o`zining "Me`mor san`ati" kitobida shunday yozadi: "O`ymakorlik ham qadimiy tarixga ega. Ibtidoiy davr moddiy madaniyat yodgorliklari-qoyalaridagi suratlardan tortib to sopol idishga chizib yoki kesib ishlangan geometrik shakllargacha o`ymakorlikning dastlabki namunalari desak bo`ladi. Ayniqsa, paxta, loy ganch va yog'och ishlatilgan qadimgi imoratlarda o`yma naqshlar keng qo`llanilgan. Afrosiyob, Xolchayon, Tuproqqal`a, Varaxsha kabi qadimgi o`nlab yodgorliklarni arxeologik tekshirish natijasida turli uslubdagi noyob kulolchilik buyumlari va ularni bezaklarining qariyb 2000 yil davomidagi taraqqiyot bosqichlarini kuzatishga muvaffaq bo`ldik, har bir davr o`ziga xos san`at uslubiga egaligini aniqladik"[3].

O`rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi va tarqalishi natijasida esa me`morchilikdagi tasvir va haykallar o`rnini badiiy naqsh bezaklari egallagan. Bu esa kulolchilik san`atining keng taraqqiyoti uchun zamin yaratdi. Ayniqsa, IX-XIII asrlar dekorativ san`atda kulolchilikning ajoyib namunalari yaratilganligi ma`lum.

IX-XI asrlarda kulolchilik san`ati yanada rivojlanganligini va unda murakkab naqsh elementlari paydo bo`lganligini ko`rishimiz mumkin.

Afrosiyobda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida IX-XI asrlarda ishlangan saroylarning qoldiqlaridan juda ham ko`plab kulolchilik namunalari

[2] С.Булатов. Ўзбек халқ амалий безак санъати. –Т; "Меҳнат", 1991,14-бет.
[3] П.Ш.Зоҳидов. Меъмор санъати. –Т; Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978, 35-бет.

topilgan. Farg'ona vodiysida XII asrda bezak sifatida har xil plitkasimon kulolchilik namunalari ishlatilgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda me`morchilikda ishlatilayotgan bezakli kulolchilik plitkalari XII asrda ham keng avj olganligini ko`rsatadi.

O`sha davrlarda O`rta Osiyo madaniyati tez sur`atlar bilan rivojlanda, yangi yuksalishlar davri bo`ldi. Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdous, Rudakiy kabi buyuk mutaffakirlar, olimlar, yozuvchilar etishib chiqdi. Butun dunyoga mashhur bo`lgan me`morlik obidalari bunyod etildi. Buxoroda Ismoil Samoniy maqbarsi barpo etildi.

XIII asrga kelib mo`g'illar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong'in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san`ati rivojiga katta putur etdi.

XIV asrdan boshlab esa O`rta Osiyo xududida kulolchilik jadal sur`atlar bilan rivojlandi. Amir Temur bobomiz san`at va madaniyatga, me`morchilik katta e`tibor qaratdi. Xalq turmush tarzini yaxshilash maqsadida qilgan sa`i-harakatlari tufayli amaliy san`atning barcha turlari ham yana rivojlandi. Boshqa o`lkalardan ustalarni olib kelib, ular uchun maxsus rastalar tashkil qildirdi. Olamga dong'i kegan mashhur, go`zal binolar, qasrlar, saroylar qurdirdiki, ularning har birini alohida o`rganilishi lozim bo`lgan tadqiqot ishi sanaladi. Ammo, Amir Temur vafotidan keyin esa ichki nizolar oqibatida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketadi. Natijada esa Buxoro, Xiva va Qo`qon xonliklari paydo bo`ladi. O`rta Osiyoda bir necha feodal davlatlarning bunday ajralishi natijasida o`zaro aloqalar susayib ketadi. SHuning uchun ham kulolchilik turli xonliklarda turlicha rivojlanadi. Bizningcha Rishton kulolchilik san`ati Qo`qon xonligi tasarufida bo`lgan xuddudlardagi kulolchilik markazlari hisoblangan Chorku, G'urumsaroy va Andijon maktablari bilangina yaqin aloqada bo`lgan.

XVIII asrga kelib esa bizga ma`lum bo`lgan kulolchilikning o`ziga xos maktablari qayta tashkil bo`la boshladi va usta-kulollar sulolasi shakllandi. O`rta Osiyoda ichimlik suviga bo`lgan ehtiyoj katta bo`lganligi bois ham sopol idishlarni tez sur`atlar bilan ishlab chiqishga ehtiyoj ortib bordi. Asrlar osha ularning shakli,

rangi va bezagi nafislashdi. Ustalar turli –tuman kulolchilik buyumlarini yasash bilan birgalikda ularni yuksak did bilan bezay boshladilar.

XIX asrga kelib O`rta Osiyoda arzon baho chinni buyumlar ishlab chiqarilishi hamda Rossiyadan ham ko`plab miqdorda chinni idishlarning tashib keltirilishi natijasida sopol buyumlar ishlab chiqarish birmuncha kamayib ketadi. Sopoldan me`morchilikda foydalanish esa kulolchilikni ma`lum miqdorda o`z mavqeini saqlab turishiga sabab bo`ldi xolos.

XIX asrda O`rta Osiyodagi tojik va o`zbek xalqlari o`rtasida o`zaro aloqalar kuchaydi, kulolchilik keng rivojlanib G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, SHaxrisabz, Toshkent, Rishton kabi kulolchilik markazlari paydo bo`ldi[4]. Ular sopol buyumlarni tabiiy vositalar asosida sirlab bezatishning o`ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatliligi, chiroyliligi, bezaklarining nafis va ta`sirchanligi bilan shuxrat qozondilar.

XX asrning 30 yilarida Toshkentda eksperimental keramika zavodi, Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932 yili Toshkentda o`quv-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilib, u er xalq amaliy san`ati ustalari, jumladan, kulollar tayyorlaydigan kurslar ochildi. 1943 yili Shaxrisabzda o`quv-ishlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushdi. Yo`qolib borayotgan kulolchilik sir-asrorlarini mashxur kulollar yoshlarga o`rgatdilar. Bunday ustalar sirasiga rishtonlik Uzoq Shermatov, Xolmat Yusupov, g'ijduvonlik Muxammad Siddiq, Usmon Umarov, toshkentlik Turob Miraliev, shaxrisabzlik Rustam egamberdiev, Karim Xazratqulov va shu kabi boshqa ustalar kiradi.

Ko`pgina kulolchilik ustaxonalari, artellari tashkil etildi. Jumladan, bu paytda tashkil etilgan G'ijduvondagi "Namuna" va Rishtondagi "Yangi hayot" artellari nafaqat Sobiq ittifoqda, balki dunyoga mashhur artellardan hisoblanar edi.

Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi va Xivada o`ziga xos

[4] С.Булатов. Ўзбек халқ амалий безак санъати. –Т; "Меҳнат", 1991,286-бет.

mustaqil maktablar vujudga keldi. Kulolchilik san`ati va texnikasi kishini qoyil qoldiradigan darajada o`sdi. Jumladan, Buxoro bezaklaridagi mayin gullar nafis, Marg'ilonning guldor bezaklari yaxlit ko`rinishga ega bo`lsa, Toshkent uslubi esa qat`iy va aniq ritm asosida tuzilgan, Xivaning dinamik o`yma naqshlari o`ziga xos spiralsimonligi bilan farq qiladi.

Mustaqillik sharofati bilan O`zbekistonda yangi ma`naviy-g'oyaviy yo`nalishlarning shakllanishi o`z navbatida zamonaviy san`atning barcha sohalariga samarali ta`sir etmoqda. Ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirmoqda. Xalq amaliy san`atining qadimiy turi bo`lgan kulolchilik mustaqillik yillari gurkirab rivoj topdi. Hozirgi vaqtda yaratilayotgan kulolchilik buyumlarida g'oyaviy, mafkuraviy muhit ta`siri, milliy tarixiy mavzular ustivorligi o`z aksini topmoqda. Quvonarli joyi shundaki, hozirgi yoshlar bu hunarni astoydil o`rganishga, uning sir-asrorlaridan xabardor bo`lishga intilib, yangidan yangi kompozitsiyalar yaratish, ijod qilish ustida maroq bilan izlanmoqdalar.

O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimovning "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atni yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g'risida"gi farmonida xalq badiiy hunarmandchiligining asriy an`analari va o`ziga xos turlarini qayta tiklashga alohida e`tibor qaratilgan. Bu farmonining hayotga tatbiq etilishi esa ta`lim tizimining barcha bo`g'inlarida olib borayotgan badiiy-estetik tarbiya ishlarining ilmiy asoslanganligiga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Shu o`rinda bir narsani ta`kidlab o`tish joiz. Hunar o`rganish uchun kelgan shogirdni xuddi daryo bo`yiga kelgan suvga tashna, chanqoq kishiga o`xshatish mumkin. Chunki, tashna odam o`z chanqog'ini qondirish uchun miriqib suv ichadi. Shogird ham hunarni xuddi shunday "tashnalik" bilan o`rganadi. Shogirdning "tashnaligi" - uning hunarga qiziqishi, o`z ustida ishlashi, qiyinchiliklarni engib, ijodiy qobiliyatini namoyon qilishi, yangiliklar ustida tinmay izlanib, o`z mehnati samarasidan zavq ola bilishida namoyon bo`ladi.

O`zbekistonning G'ijduvon, Shaxrisabz, Samarqand, Toshkent, Rishton, Xorazm kabi kulolchilik markazlarida tayyorlangan sopollarda avvalo ikki xil "rang" guruhlari aniq, ravshan chegaralangan: biri moviy oq zangori va ikkinchisi zangori qo`ng'ir-sariqdir. Bu muayyaan rangga moyillik ko`p jihatdan texnik asboblarga asoslangandir. Farg'ona va Xorazmda ishqorli sir ishlatilgani uchun bezakda moviy, oq zangori ranglar majmuasi hukmronlik qiladi, chunki ishqor siri ostida sariq, qizil ranglar yoyilib ketadi, moviy-zangori rang esa tiniq va nafis tusda tovlanadi. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi qo`rg'oshin sir ishlatiladigan hududlarda sariq, qizg'ish, qo`ng'ir ranglar majmuasining barcha rango-rangligi ja`mlangan. Bu hududlarda sopolga tushirilgan ranglar o`zining sho`xchanligi, afsonaviy yorqinligi va nafis go`zalligi bilan kishini hayratga soladi.

Idishlarning shakli va gullar to`qimasining kompozitsion tuzilishi hududlar bo`yicha bir-biridan kam farq qiladi, shunga qaramay ular hozirgacha o`ziga xos mahalliy xususiyatlarini yo`qotmagan. O`zbekistonda badiiy kulolchilik xalq an`analariga asoslangan holda bugungi kunda ham yashab, rivojlanib kelmoqda.

O`zbekiston xalqining tarixiy-milliy merosi an`analar tizimida amaliy san`at turmush tarzimizga eng chuqur kirib borgan sohalardan biri. Ayni paytda amaliy san`at, uning maishiy va professional sohasi bo`lib, ular o`zgacha funktsiyaga ega. Amaliy san`atning maishiy sohasi ko`proq turmushda qo`llanadigan buyumlarda uchraydi: kosa, piyola, choynak, lagan, turli chinni va sopol buyumlar; do`ppi, qiyiq, dastro`mol, taqinchoqlar kabi shaxsiy buyumlar; zardevor, palak, so`zana, obdasta va boshqa uy-ro`zg'or buyumlarini shartli ravishda amaliy san`atning maishiy sohasi deb atash mumkin.

Professional sohaga mansub amaliy san`at asarlari malakali ustalar tomonidan yasalib, odamlarga estetik zavq bag'ishlash uchun maxsus ishlanadi va ko`rgazma zallari, muzeylarda eksponat sifatida namoyish etiladi, yuqori martabali mehmonlarga sovg'a sifatida taqdim etiladi.

L.I.Rempel', A.Azimov, R.Abdullaev, N.A.Avedova, Z.Bositxonov, R.Zoxidov, A.S.Morozova, G.A. Pugachenkova, D.Faxreddinova, A. Xakimov, S. S. Bulatovlarning tadqiqotlarida amaliy san`at professional soha sifatida tadqiq

etilgan. Ularning tadqiqotlari pedagoglarga amaliy san`at bo`yicha pedagogik hamda metodik xarakterdagi ishlanmalar tayyorlashda o`ziga xos zamin bo`lgan. Masalan, P.Zohidov o`zining "Me`mor san`ati" kitobida qadimda ustalar naqshning etti xil turga bo`lishganini aytib o`tadi[5]. Bular quyidagicha: islimi, xitoy, abr, voq, nilufar, farangi va bandi rumiy. P.Zohidov buni ta`kidlab shunday yozadi: "Ko`rinib turibdiki, naqqoshlarni tashkil etuvchi elementlarni belgilashda musavvirlarda yagona tartib, uzviylik bo`lmagan. Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur va shular singari boshqa ko`p o`rta asr mutaffakkirlari binolarni bezagida islimi va xitoy naqshlar ishlatilganini ta`kidlashadi. Lekin, keng tarqalgan va qo`llangan bu ikki xil naqshlarning ta`rifini hech qaerda uchratmaymiz. Agar islimiy naqshlariga asosan nabotiy-tabiatdagi o`simliklarga tadlid qilib ishlangan gullarini nazarda tutgan, xitoy ornamenti haqida esa yagona fikr yo`q.

Kulolchilik san`atini tatbiq etishda O`zbekiston xalq rassomi, san`atshunoslik nomzodi Muhiddin Raximov samarali mehnat qildi. U o`ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq amaliy san`atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi.

Ko`p asrlar davomida o`zbek xalqi kulolchilik san`atining boy hamda rang-barang amaliy-badiiy an`analarini yaratib kelgan. Kulolchilik san`ati - xalqning kundalik turmushi san`atidir, uning eng muhim belgisi badiiyat va amaliy zaruriyatning o`zaro uzviy bog'liqligini ularning g'oyaviy-badiiy va ijtimoiy-amaliy mohiyatlarining birligi vujudga keltiradi. Kulolchilik buyumlarida shaklning maqsadga muvofiqligi hamda shakl va tasvir birligi alohida ajralib turadi.

[5] П.Ш.Зоҳидов. Меъмор санъати. –Т; Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978, 35-бет

1.2. Amaliy san`atdagi an`analar va xalq ustalarining pedagogik merosi.

> Dunyoda eng katta boylik–yoshlikda olgan bilim va egallagan kasbu hunardir.
>
> Shavkat Mirziyoev

Ajdodlarimiz asrlar davomida yaratgan amaliy bezak san`atining namunalarini qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, ular orqali yoshlarning estetik didini o`stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalashda keng foydalanish lozim.

Yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda yurtimizda qadimdan sayqallangan ajoyib ma`naviy boyliklarni, ulug' olimlarning ibratomuz fikrlarini, "uztoz-shogird" an`analari asosida hunarmand ustalarning pedagogik merosini o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va musavvirlar, mutafakkirlar odamlarni go`zallikka intilishga chiqarganlar. Bobomiz Amir Temur hunar va ilm egalari, yirik mutaxassis olimlar yordamiga tayanib matematika, geometriya, me`morchilik, astronomiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix, musiqa, tasviriy san`at va xattotlik kabi sohalarni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. Shaharlarni har tomonlama ko`rkam, muxtasham, chiroyli va ulug'vor qilishga intildi. Jumladan, tosh hamda g'ishtlik yo`llar, keng, katta, ravon ko`chalar qurdirgan. Bir-biridan mahobatli bo`lgan binolar soldirgan. Bularning bunyodkorlari, ijodkorlari orasidan amaliy san`at ustalari ham asosiy rol o`ynaganlar. Xorazmdagi tuproqqal`a zallari mahobatli naqshlar bilan bezatilganligi bizga tarixdan ma`lum. VI-VII asrlarda qasrlar va boylarning uylari ham o`yma naqshlar hamda tasvirlar bilan o`ziga xos tarzda bezatilgan.

IX-X asrlarda O`rta Osiyoda naqqoshlik san`ati avj olib rivojlandi. Me`morchilikda g'isht qadab naqsh solish yuksak darajada taraqqiy etdi.

Binolarning ichki tomonlariga ganch, yog'och o`ymakorligini qo`llash rivoj topdi. Ayniqsa, maqbaralarining peshtoqlari, devor va ravoqlari ganch naqshlar, terrakota bilan juda nafis ko`rinishda bezatildi.

XVIII asrning oxiri va XIX asrda Qo`qon, Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Xiva va Toshkent kabi shaharlarda etuk xalq ustalari etishib chiqdi. Misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, chilangarlik va shu kabi boshqa san`at turlari rivojlandi. Qadimda hunar muqaddas sanalgan. Har bir xalq kelajak avlodlarga o`zidan keyin qoldirgan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan. O`zbekiston ham qadimda usta hunarmandlar markazi bo`lgan. Masalan, Samarqand viloyatida Urgut, Farg'ona viloyatida Qo`qon, Marg'ilon, Namangan viloyatida Chust hunarmandchilik markaziga aylangan. Hunarmandlar o`sha davrlarda mahallarga bo`linib yashagan. Masalan, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Buxoroda "bo`yrachi" mahallasi bo`lgan. Bo`yrachi mahallasida 120 ta oila yashagan. Har bir kasbkorlik mahallasida qo`ni-qo`shnilar o`rtasida ijobiy ma`noda "raqobat" bo`lgan. Chunki, kimning mahsuloti sifatli bo`lsa, xalq o`shaning ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. Shuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlashga intilgan, har bir ustaning o`z rastasi bo`lgan. Bozorlarda odatda, bozor begi bo`lgan. U barcha rastalarga kiritilgan mollari kuzatib, ularga narx belgilab chiqqandan keyingina savdo-sotiq ishlari boshlanar edi. Bularning barchasi zamirida sharqona tarbiyaviy omil yotadi. Sifatsiz mahsulot ishlagan ustaning bozori kasodga uchragan.

Naqqoshlar o`tmishda xalq ustalarining eng bilimdoni hisoblangan. Chunki, ular madrasada taxsil olib, adabiyot, tarix, musiqa, matematika, kimyo fanlarini yaxshi bilganlar. Naqqoshlik texnologiyasi avloddan - avlodga o`tib kelgan. Qadimda naqqoshlar naqsh yaratish sir-asrorlarini yozib qoldirmaganlar, ular bu sirlarni faqatgina shogirdlariga o`rgatishin ma`qul ko`rishgan. Shogirdlari usta esa bo`lganlaridan so`ng, ular ham o`zlarining shogirdlariga o`rgatganlar. Shunday qilib naqqoshlik san`ati an`ana tariqasida rivojlanib kelgan. Naqqoshlar shogirdlikka o`z bolasini yoki qarindosh-urug'larining bolalaridan olganlar. SHogirdlikka bolalar 7-8 yoshdan olingan. O`qish-o`rganish 7-12 yillar atrofida bo`lgan. Ustozi shogirdlari bilan kunduz kuni ishlagan. Kechqurun esa ustoz

rahbarligida xat-savodini chiqargan. Shogirdlar geometriya va kimyoni ham o`rganganlar. Boshqacha qilib aytganda, to`laqonli ta`limiy va tarbiyaviy jarayon ketgan. SHogird mustaqil ish bajara oladigan darajaga etganidan keyin ustalar uning ishlarini muhokama qilishib, u bunga loyiq topilsagina “usta” nomini berishgan. Naqqoshning o`g’li ota kasbini yoshlikdan o`rganib borgan. Bu esa kelajakda yaxshi hunarmand bo`lishiga zamin yaratgan. Ustada o`g’il yoki umuman farzand bo`lmasa, bu holda u kasbni eng yaqin qarindoshining farzandlariga o`rgatgan. Xullas, kasbning avloddan avlodga meros qolishi an`ana holda rivojlanib kelgan.

Ustaga shogirdlikka berishda quyidagi urf-odatga rioya qilingan. Bolani ustaning oldiga olib borishda o`ziga yarasha tantanali marosim bo`lgan. Bolaning ota-onasi hamda qarindoshi-urug’lari “boy” degan bo`g’irsoq va xolvaytar qilib, ustaning huzuriga kelganlar va bolani “go`shti sizniki, suyagi bizniki” qabilida gaplar bilan uning ixtiyoriga topshirganlar. Keltirilgan pishiriqlar o`sha paytdayoq birgalikda tanovul qilingan. Usta bolaga hunar o`rgatishdan tashqari, butun o`qish davomida uni oziq-ovqat bilan ta`minlab turgan. Kasb o`rgatish tekin olib borilgan. Bularning barchasi xalq amaliy san`ati milliy-amaliy tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ustoz shogirdga nafaqat amaliy san`atning sir-asrorlarini o`rgatgan, balki o`z shogirdlarining diliga bir qator insoniy sifatlarin singdirib borib, kasbiy va ma`naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdek xayrli ishni ham bajarib borganlar. Shogirdning shakllanish jarayonida unga nisbatan qattiqqo`l va talabchan bo`lgan. Chunki, har bir hunarni o`ta nozik did va sabr-toqat bilangina o`rganish mumkin. Ustalar shogirdlari uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirddan pokizalikni, ish vaqtida chalg’imaslikni, egri va nomaqbul ishlarga yaqin yo`lamaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo`l urmaslikni qat`iy turib talab qilganlar. Shogird san`at sirlarini puxta egallaganidan so`ng unga oq fotiha berilgan. Marosimda shogird ustozga sarpo taqdim etgan. Ko`pincha ustoz shogirdini mustaqil ish boshlashiga qiynalmasligi uchun shu kasbda ishlatiladigan asbob-uskunalardan andozalar bergan. Agar oq fotiha olgan ba`zi bir shogird o`zi

mustaqil ishlashni xohlamasa, ustoz qo`l ostida qolib, u bilan birga ishlashni davom ettirgan. Bunday hollarda esa shogird ustozi bilan o`zaro kelishib ish haqi olgan.

O`zbek ustalaridan biri ganch-o`ymakor usta Usmon Ikromovning hayot yo`li ibratlidir. Yosh Usmon usta Rasul hojining qo`lida 8 yil ishlaydi. Besh yilgacha haftalik haqi 10 tiyindan oshmagan har payshanba kuni Rasul xoji shogirdi qo`liga 10 tiyin bergan. Usmon pulni olib bozordan 10 tiyinga 10-12 ta non, otasi va ikki singlisiga egulik olib borgan. Oltinchi yildan o`tganida ish haqi hafta ichida 50 tiyinga, sakkizinchi yilga o`tganda esa kundalik ish haqi 1 so`mga chiqqan. Bu paytda u imorat ishidagi oddiy cho`pgarlikdan tortib g'isht terish, suvoq, ganch o`ymakorligigacha mustaqil bajara oladigan darajada bo`lgandi. Nihoyat sakkiz yil deganda Usmon Rasul xojidan oq fotiha olib, usta degan nomga ega bo`ladi.

Buxorodagi hamma ustalarga ganch sotadigan boylardan biri Abduqodir bir kuni usta Hayitni chiqarib yangi uyni ganch bilan bezatmoqchiligini aytadi. Usta Hayit bu ishni 22 yoshli Shirin Murodovga topshiradi. Bu ish usta SHirin Murodovning birinchi mustaqil ishi bo`ldi. Shirin ish rejasini mehmonxona bezaklarini oddiy bejirim nisbatlarini saqlagan holda bir butun ko`rinishi va boshqalarini hisobga oladi. U mehmonxona va ayvonlarni sharaflar bilan bezaydi, undagi o`yma ganchlar juda mayin, bejirim chiqqanligi sababli ustalar orasida hurmat - obro`si yana ham oshadi. Usta Hayit kunlardan bir kuni SHirinni oldiga chaqirib: “Men sendan xursandman, endi mustaqil ishlayversang bo`ladi”,- deydi. Azaliy odat bo`yicha shogirdga 20-30 nafar ustalar ishtirokida “usta” nomi berilganligi e`lon qilinadi. Shirin Murodov shundan so`ng xalq orasida “usta” degan sharafli nomga muyassar bo`ladi. Keyinchalik bu usta san`atkor O`zbekiston madaniyatining durdona namunalari sirasiga kiruvchi bir qator ma`muriy va madaniy-ma`naviy binolarni qurishda ishtirok etgan. O`zbekiston xalq rassomi, o`zbekiston fanlar Akademiyasining faxriy akademigi unvoniga sazovor bo`lgan. Uning hayot yo`li o`quvchi yoshlarga amaliy san`at sirlarini o`rgatishda namuna bo`lib xizmat qiladi.

O`zbek me`morlari yashash uchun har jihatdan qulay, shinam, chiroli uylar qurganlar. O`zbeksitonning hovli-joyi tugal bir me`moriy ansamblni tashkil etib, o`ziga xos sharqona fayzga ega bo`lgan. Bu uylarning bir-biriga uzviy qilib qurilishi va bezatilishi bir san`at darajasida bo`lgan. Yog'och o`ymakorligi bo`yicha ishlayotgan shogird odatda ustaning uyida turgan. Shogirdga yaxshi va puxta hunar o`rgatish uchun usta avval uni mehnatga o`rgatgan va shu hunarga tabiiy holda qiziqishini oshirgan. Buning uchun ustoz shogirdlariga uyidagi mayda-chuyda ishlarni ham buyurgan. Keyin asta-sekin ustiga asbob-uskunalar olib berib turish yoki ashyoni tayyorlash, keyinchalik esa eshik, ustunlarni o`rnatishga o`rgatgan, ya`ni usta shogirdiga yashash bilan birga hunar sirlarini oddiydan murakkabga qarab o`rgatib borgan. 3-4 yildan so`ng usta yaxshi tajribali shogirdlariga 15-20 kun pul ishlab kelishi uchun ruxsat bergan.

Shogirdga usta nomini berishning ham o`ziga xos urf-odatlari bo`lgan. Bu tantanali kecha shogirdning ota-onasining uyida yoki ustaning uyida o`tkazilgan. Kechada shogirdning qarindoshlari, ustozning qo`lida ishlaydigan shogirdlari, ustalar, mullalar qatnashgan. Ustalarning kattasi, oqsoqol, ustakalon yoki uning yordamchisi poykor usta nomini olayotgan shogirdning boshiga salla o`ragan, egniga chopon kiygizib, beliga qiyiqcha bog'lagan. Belboqqa arra va tesha qistirib qo`yilgan. Shundan so`ng shogirdni ustalar va do`stlari tabriklaganlar. Keyin katta usta dasturxondan nonni olib, kechaning sababchisi bo`lgan shogirdga qarab: "Qaerga borsang ham o`zingni kuygan kulchangni ko`rsatgin",- deb bergan. Bunday urf-odatlarning har xil turlari bo`lgan. Ba`zan esa bo`lg'uvchi ustaga biror uyni mustaqil tarzda bezash topshirilgan, ish bitganidan keyin ustalar uning ishini tekshirib, baho berganlar. Agar ustalarga ma`qul tushsagina shogirdga "usta" degan unvon berilgan. Shundan so`ng ustaga boshqa shaharga borib mustaqil ishlashga ruxsat etilgan. Ba`zi yosh ustalar ustoziga "xalta" bo`lib, uning boshchiligida ishlab yurgan.

Oqsoqol sifatida shahardagi eng katta, tajribali ustalardan birini tayinlashgan. Agar oqsoqol biror nohaq ish qilib qo`ysa, unda biror masjidga oqsoqolning yordamchisi va hamma ustalar yig'ilib, qayta oqsoqol saylangan.

Buxoroda esa oqsoqolni qayta saylash boshqacharoq bo`lgan. Ustalar Buxoro xoniga maxsus ariza yozganlar. Shundan so`ng Buxoro xonidan qayta saylanayotgan oqsoqol uchun sarpo va maxsus qaror, ya`ni yorliq olingan. Xalqqa qaror o`qib eshittirilgan va oqsoqolga sarpo kiydirilgan. Buxoroda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida duradgorlar boshlig'i usta G'ulom, O`ratepada esa usta Karim Kajorboshi (usta Abdukarim Abduxoliqov) bo`lgan. O`ratepalik xalq ustalarini yuqori Zarafshon qishloqlarida masjid, madrasa, turar joy binolarini bezash uchun taklif etganlar. Ular naqqoshlik, yog'och o`ymakorligi, ganchkorlik va boshqa ishlarni bajargan.

Ustalar uyushmasi ba`zi turar joylarga ustalarni ishlashga yuborgan. Ularga ish haqi tariqasida ishlagan joylarda kiyim, qo`y, sigir, echki, er, pul berilar edi. Ular orasida o`ziga xos musobaqa bo`lgan. Ularning ishlari ko`rgazma qilinib, katta ustalar orasida boholangan. Masalan, O`ratepaning ko`k Gumbaz mahallasida Mavlono eshon maqbarasini ikki o`yma eshigini bajarish uchun usta Karim Xorrot va Abduqodir Xorrotlarga topshiriladi. Ular bittadan eshikni o`yib bezaganlar va ularniki tabaqali eshiklari bir qancha katta ustalar orasida baholandi. Usta Abdurashidning eshigi 70 oltin tanga, usta Karimning 100 oltin tanga bilan baholanishining sababi shuki, eshikning yuqori yarim doira qismi umumiy naqsh kompozitsiyasi bilan bog'langan edi. Abduqodir ustaning eshigi tepasi uchli bo`lib, bino qurilishi kompozitsiyasiga mos kelmagan. Ba`zi ustalar o`z ishiga berilgan bahoga nisbatan norozilik bildirganlar. Bunday holatlarda oqsoqol aralashib, kelishmovchilikni bartaraf qilar edi.

1924 yilgacha O`rta Osiyoda boshqa hunar turlari ustalari kabi zardo`zlar juda ko`p bo`lgan. Masalan, Buxoroda 300 dan 350 nafargacha zardo`z ustalar ishlagan. Hunarmandlar o`rta asr hunar shirkatlari ko`rinishidagi maxsus tashkilotga uyushgan edilar. Zardo`zlarning ishlari ustidan nazorat o`rnatuvchi bu tashkilot o`zining saylovchi ma`muriyatiga ega bo`lib, barcha rasm-rusmlar, urf-odatlarga izchil amal qilar, tantana va yig'ilishlar o`tkazib turar edi. Buxoro ustalarining zardo`zlik kasbi otadan farzandga meros bo`lib kelgan. Asli zardo`z bo`lgan oilaning o`g'il farzandi otasidan zardo`zlikni o`rganib, o`z navbatida u o`z

bolasiga o`rgatgan. O`g'li bo`lmagan otalar bu kasbni eng yaqin qarindoshlariga, ularning farzandlariga o`rgatganlar. Kasbning avloddan avlodga meros qolishi odatiy hol bo`lganiga qaramay, zardo`zlik ham boshqa kasblar bilan bir qatordan o`rin olgan. Zardo`zlik kasbni o`rgatish uchun 10-12yosh, ayrim hollardagina undan kattaroq yoshdagi bolalar ham jalb etilgan. Dastlabki paytlardan shogird uy yumushlariga qarashgan, ustaxonani supurib-sidirgan, suv tashigan, bozor-o`char qilgan, tikuvchilarga yordam bergan, onda-sonda ish orasida, uncha-muncha qatim tortib turgan. Oradan bir yil yoki undan sal ko`proq muddat o`tgandagina unga tikish sirlari o`rgatila boshlangan. Shogirdga mablag' to`lash borasida ma`lum qoida bo`lmagan va hunar o`rgatish muddati ham cheklanmagan. Ta`lim berish 4 yildan 7 yilgacha davom etgan. Bordiyu shogird o`ta qobiliyatli chiqib qolsa, bunday malakali ishchisidan mahrum bo`lishni istamagan ustoz 8-10 yilgacha ham shogirdini saqlagan. Bunday paytlarda shogird oqsoqolni o`rtaga solib, ustasi unga tezroq ruxsat berishini so`ragan. Shogirdning talabi o`rinli bo`lsa, oqsoqol ustadan shogirdiga oq fotiha yoki bo`lmasa mehnatiga haq to`lashi lozimligini aytgan. Albatta, shogirdga to`lanadigan haq xalifalarga to`lanadigan haqdan ancha kam bo`lgan.

Bularning barchasidan chiqariladigan xulosa shuki, xalq amaliy san`ati uning qaysi turiga taalluqligidan qat`iy nazar, o`ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan. Ayni paytda ular bir qator umuminsoniylik bilan birga o`ziga xos jihatlarni ham mujassamlantirgan.

Har bir jamiyat o`zining ijtimoiy, iqtisodiy va ma`naviy ravnaqi uchun mas`uliyatni his etadigan, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalab etkazishdan manfaatdordir. Shu bois mamlakatimizning ma`naviy, madaniy-ma`rifiy hayotida badiiy madaniyatimizga, tarixiy qadriyatlarimizga asoslanib jamiyatni yangilash hamda shu jamiyatning faol quruvchisini badiiy-estetik jihatdan tarbiyalashga katta e`tibor qaratilmoqda.

1.3. Kulolchilik san`atida etnik-madaniy an`analar.

O`zbekiston o`z tarixining g'oyat mas`uliyatli bo`lgan davrini, ya`ni mustaqil davlatchilikning qayta shakllanish davrini boshidan kechirmoqda. Ulkan voqealar biroz olis masofadan yaxshiroq anglab etiladi, lekin biz shu kun nuqtai nazaridan turib, o`tmishga nazar tashlashimiz va hozirgi ma`naviyatimizning ravnaqi uchun tayanch hisoblangan madaniy voqea va hodisalarga baho berishimiz kerak. Hozirgi kunda milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizga qiziqishning mavjudligi tasodifiy hol emas – respublika milliy, tarixiy jihatdan o`zini o`zi anglab etishi jarayonida mamlakatning qaror topgan tabiatiga, mehnatkash xalqining azaliy urf-odatlariga, qadriyatlariga muvofiq keladigan yo`nalishlarni belgilab olmoqda.

XX asr oxiriga kelib, kuni kechagina aslo o`zgarmas bo`lib tuyulgan g'oyalar barham topib, etnik madaniy qadriyatlarni faollashtiruvchi omillar bugun tarix sahnasida peshqadamlikni egalladi. O`zining milliy, etnik o`ziga xosligini ifodalashga bo`lgan xohish-istak sobiq ittifoq davrida o`nlab yillar mobaynida targ'ib qilib kelingan millatlarning bir-biriga qo`shilib ketishi haqidagi shiorga javoban vujudga kelgan keyingi bosqichga xos bo`lgan qonuniy holatdir. Millatning o`z o`zini anglashi jarayonida badiiy meros, avvalo, xalqnning o`ziga xos etnik xususiyatlarini birmuncha yaqqol aks ettiruvchi an`anaviy amaliy san`atning o`rni ham katta.

Xalq ongining teran qatlamlarida mo``jizaviy tarzda saqlanib qolgan, azaliy ustalar ijodi samarasi sifatida dunyoga kelgan amaliy san`at va hunarmandchilik an`analari hozirgi kulolchilik va to`qimachilik buyumlari, yog'och va ganch o`ymakorligi, zargarlik zeb-ziynatlari, kandakorlik va kashtachilikda o`z umrini davom ettirib kelmoqda.

Kundalik voqelikda jo`shqin o`zgarishlar yuz berayotgan bir sharoitda xalq amaliy san`ati an`analarining saqlanib qolinishi nafaqat an`anaviy san`at qonuniyatlari bilan uslubiy o`xshashlikning, shu bilan birga san`at asari bilan u yaratilgan davr, muayyan madaniy umumiylik, xalq xarakteri o`rtasidagi ichki

aloqalarning izchilligini asoslaydigan keng madaniy-tarixiy umumlashmalarni qayd qilish zarurligini taqozo etadi.

Mustaqillik yillarida, ulkan o`zgarishlar davrida avvalgi davrlar san`ati an`analariga murojaat qilinishi tasodifiy hol emas. Garchi O`zbekiston xalqlari etnogenezi va madaniy kelib chiqishi jarayoni, o`zaro ta`sirining butun to`liq manzarasini qayta tiklash lozim bo`lib, O`bekiston san`atida o`tmish davrlar san`ati an`analariga murojaat qilish alohida dolzarblik kasb etmoqda. O`zbekistonning bugungi jamiyati ongli tarzda milliy madaniyatni saqlab qolish va ularni yanada boyitishni amalga oshirmoqda. Darvoqe, bunday jarayon nafaqat O`zbekiston, balki Markaziy Osiyodagi barcha sobiq ittifoq respubkalari san`atlariga birdek tegishli hisoblanadi.

O`zbekiston tarixidagi eng yorqin sahifa – Temuriylar davri hozirgi kunning o`ziga xos g'oyasi, millat ravnaqining rag'batlantiruvchi yuksak davlatchilik ramzi bo`lib qoldi. Bu san`atning asosiy turlaridan biri – me`morlikda yaqqol o`z ifodasini topdi. Keyingi yillarda barpo qilingan milliy uslubdagi mahobatli, hashamatli binolar nafaqat keng miqyosdagi qurilishlar bilan dong taratgan, balki Amir Temur davri bilan o`xshashlikni, shu bilan birga bizning davrimizga xos bo`lgan jo`shqinlikni ham o`zida mujassam qiladi.

Biroq, biz dissertatsiyamiz mavzusidan kelib chiqqan holda, avvalo milliy me`morchilik bilan bir qator diqqat-e`tiborda turgan amaliy san`at xususida to`xtalish niyatidamiz. Amaliy san`at ustalariga o`rta asrlar merosi ancha yaqin, zero, o`tmish tajribasini meros qilib olishda ichki aloqa hali ham barhayotdir, chunki amaliy san`at va hunarmandchilik an`analari izchilligi bevosita ustozdan shogirdga o`tib keladi.

O`zbeksiton hududida istiqomat qilgan turli etnik guruhlar o`rtasida tarixan qaror topgan aloqalar bir qator etnik-madaniy mintaqalarning tarkib topishiga olib kelgan, ularda ijtimoiy malakalar va hunarmandchilik an`analarining o`zaro bir-biriga ta`sir qilishi va singib borish jarayoni jadal kechgan.

Bu borada Farg'ona vodiysi va O`zbekistonning o`zbek hamda tojik aholisi birlikda istiqomat qilgan markaziy tumanlari alohida ajralib turgan.

Qoraqalpog'istonda o`zbek, turkman, qoraqalpoq madaniy an`analarining o`zaro ta`siri ko`zga tashlanadi. Qayd qilish lozimki, amaliy san`atni o`rganishda nafaqat etnik, shu bilan birga u yoki boshqa etnik guruhlarning ajratib turadigan madaniy-xo`jalik omilini ham e`tiborga olish kerak. O`zbekiston san`atining rivojlanishi uchun o`troq aholi madaniyati bilan cho`lu dashtlar aholisi madaniyati o`rtasidagi o`zaro bog'liqlik o`ziga xos imkoniyatlar yaratadi. Unda uchta tamoyil o`zaro bir-birini to`ldirib turgan: birinchisi-chorvador qabilalarning estetik g'oyalarini aks ettirgan, ikkinchisi birmuncha kengroq omma bilan bog'liq bo`lib, dehqonlar san`atini o`z ichiga olgan va nihoyat uchinchisi xukmdorlar va zodagonlarga xizmat ko`rsatgan. Ularning ichida sara san`at, yirik shahar markazlarida rivoj topib, islom dinining estetik qonun-qoidalarini o`zida mujassam etgan.

O`zbekistonda badiiy kulolchilik xalq amaliy san`atining ko`plab turlari ichida maxsus o`rinni egallaydi. O`zbek badiiy kulolchilik buyumlari hamisha o`ta noyob ta`sirchanligi va puxtaligi bilan xalq ijodining asl xususiyatlarini ifoda etib keladi.

Laganlar, dumaloq piyola va kosalar, guldon va ko`zalar, xumlar eng kattalaridan tortib eng mo``jazigacha ishlatishga qulay, shaklan esa nafis qilib ishlangan. Qadim zamonlardan beri omma orasida sopol buyumlarga talab katta. Ularning zo`r mahorat bilan yasalganligi, shaklining go`zalligi, dadil fantaziyaning uyg'unlashganligi, rang ishlatishdagi me`yor ajratib turadi.[6]

O`zbekistonning badiiy sopol buyumlari ikki tupga bo`linadi: biri – kuydirilgan, sirlanmagan qizg'ish sopol, ikkinchisi – sirlangan guldor sopol.

Keyingi 100-150 yil ichida O`zbekistonda kulolchilik markazlari aniq shakllandi. G'ijduvon, Shahrisabz, Samarqand, Toshkent, Rishton, Xorazm kabi mashxur kulolchilik markazlari shular jumlasidandir. O`tgan asrning oxirlariga kelib Farg'ona viloyatining Rishton, Quvasoy, Namangan viloyatinig G'urumsaroy, Surxondaryo viloyatining Denov, Qoraqalpog'istonnig Chimboy tumani kulollarining ishi keng tanildi va shuxrat qozondi.

[6] А. С. Морозова, Н. В. Аведова, С. М. Махкамова. Ўзбекистон халқ санъати. Т.; 1977. 28-б.

Zamondosh ustalar ijodida etnik-madaniy an`analarning dolzarblashuvi mustaqil O`zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi tarixan taqozo etgan ob`ektiv qonuniyatdir. Bundan oldingi davrlar san`ati turli etnik-madaniy ta`sirlarning bir-biriga singib ketishi va keyinchalik birgaligidan iborat bo`lib, bunday xususiyat, shubhasiz, O`zbekiston san`ati va madaniyatining bundan keyingi rivojiga o`z ta`sirini ko`rsatdi.[7]

Rishton – O`zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimgi markazlardan biri sanaladi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rishton aholisining deyarli hammasi kulollardan iborat edi. Farg'ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari, jumladan, G'urumsaroy, Chorku, Konibodom va shu kabi boshqa markazlar azaldan Rishton kulolchilik san`ati ta`sirida bo`lgan.

Ushbu tumanda har qanday turdagi buyumlarni yasash uchun yaroqli bo`lgan alohida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo`ldi. Qishg'ish-sarg'ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun hududida 1-1,5 metr chuqurlikda qatlam bo`lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatliligi mahalliy ustalarning uni O`zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda, oldindan tozalab va boshqa turdagi tuproqlarga aralashmagan holda ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi. Kulollar Rishton yaqinidagi tog'lardan (Gunchiroq, Chorku, Laklon, Haydarkon va boshqalar) har xil bo`yoqlar, kvartsli qum va olovbardosh gillarni qazib olishgan.

1960 yillarda yuqoridagi eslatib o`tilgan moviy sopol buyumlari ishlab chiqariladigan an`anaviy markazlar barham topa boshladi, cho`lda o`sadigan "gulvak" o`tidan olinadigan an`anaviy ishqorli sirga asoslangan ishlab chiqarish amalda to`xtab qoldi. Rishton kulolchilik zavodi Farg'ona maktabi uchun xos bo`lmagan qo`rg'oshinli sir bilan qoplangan sopol buyumlarni ishlab chiqarishga o`tdi. Boshqa joylarda bo`lgani singari Rishton kulolchiligida ham an`anaviy ishqorli sir o`rniga qalayli sir ishlatishga to`g'ri kelishi ustalardan yangi materiallar bilan ishlatishni o`zlashtirib olishlari uchun vaqt talab qilinardi.[8]

[7] Санъат -98. Ўзбекистон Бадиий Академияси журнали № 1-3, 32-33-бетлар.
[8] Асқарбек Акпаров. Фарғона водийси амалий санъати. Н.; 2007. 31-бет.

Ana shunday sharoitda San`atshunoslarning Butun Ittifoq konferentsiyasi (Farg'ona, 1974 yil) qabul qilgan moviy ishqorli sopol idishlari ishlab chiqarish an`analarini saqlab qolish haqidagi qarori amaliy ahamiyat kasb etdi. Ushbu qaror bakrcha ustalarga ma`qul tushdi. Ular sekin-asta oldingi ishlab chiqarishga qaytib, buyumlarni bezashning an`anaviy shakllari va usullarini yana qayta tiklay boshlashdi. Keyingi 20 yil ichida Rishton sopoli an`anaviy badiiy va texnologik usullar asosida yana qayta tiklandi, ishqorli sir tayyorlash ham yo`lga qo`yildi. Hozirgi vaqtda bu erda sopol idishlarning yapaloq (kosalar, laganlar) va uzun bo`yli (ko`zalar, xumlar) turlari ishlab chiqarilmoqda.

Ilgari ishlar ixtisoslashgan tarzda bajarilardi – yapaloq buyumlarni, ya`ni yapaloq va qisqa bo`li shakllar yasovchi ustalar kosagar, baland, bo`yi cho`zilgan buyumlarni yasaydigan ustalarni – ko`zagar deyishgan. Hozir bunday tasniflash ilgarigi mohiyatini yo`qotmagan; ayrim ustalar I.Komilov, U.Ashurov, I.Komilov-kichigi ham yapaloq ham cho`zinchoq shaklli idishlarni yasashadi. Ayni paytda bir qator kulollar asosan, o`rta yosh avlod vakillari Sh.Yusupov, A.Nazirov, A.Usmonov va boshqalar ko`proq yapaloq idishlar – laganlar yasash bilan shug'ullanganlar.[9]

Mustaqillik yillarida Rishtonlik kulollar ham avvalgi davrlar san`ati an`analariga murojaat qilinishi ham tasodif emas. Nafaqat Rishton balki, butun O`zbekiston xalqi etnogenezi va madaniy kelib chiqishi jarayoni, o`zaro ta`sirining to`liq manzarasini qayta tiklash lozim. O`zbekistonning bugungi jamiyati ongli tarzda milliy madaniyatni saqlab qolish va ularni yanada boyitishni amalga oshirmoqda.

[9] Сурайё Алиева. Риштоннинг мовий сополи. Санъат -98. № 1-3, 34-бет.

I-bob bo`yicha xulosa

Amaliy san`at turlari va maktablari mavzusiga bag'ishlangan ushbu bobda O`zbekistonda kulolchilik sn`atining rivojlanishi, unda tarkib topgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Shaxrisabz, Andijon, G'urumsaroy, Rishton kulolchilik maktablar haqida ilmiy ma`lumotlarni taxlil qildik.

Afrosiyob, Xalchayon, Tuproqqal`a, Varaxsha kabi qadimgi o`nlab yodgorliklarni arxeologik tekshirish natijasida turli uslubdagi noyob kulolchilik buyumlari va ularni bezaklarining qarayib 2000 yil davomidagi taraqqiyot bosqichlarini o`rganib chiqdik. Amaliy san`atdagi xususan kulolchilikdagi an`analar va xalq ustalarining pedagogik merosi, kulolchilik san`atidagi etnik-madaniy an`analar to`g'risidagi ma`lumotlar, ilmiy manbaalar taxlil qilib chiqqanimizda ustoz shogirdiga nafaqat amaliy san`atning sir-asrorlarini o`rgatgan, balki o`z shogirdlarining diliga bir qator insoniy sifatlarni singdirib borib kasbiy va ma`naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdek xayrli ishni bajarib borgani haqida ham qimatli ma`lumotlarga ega bo`ldik.

Rishtonga xos bo`lgan loy va sopolga ishlov berishning texnologik jarayoniga alohida to`xtalib o`tdik. Avloddan avlodga o`tib kelayotgan ustlarning merosini yo`q bo`lish va qayta vujudga kelishiga oid tarixi jarayonlar ham o`rganib chiqildi.

II-bob. Rishton kulolchilik san`ati: an`ana va islohotlar.

2.1. Rishton kulolchilik san`atining o`ziga xos tomonlari.

Rishton kulolchilik san`ati O`zbekistonning eng xushmanzara, go`zal joylaridan biri bo`lgan Farg'ona vodiysida paydo bo`lgan. U Farg'ona vodiysining janubida, Farg'ona viloyatining Farg'ona va qadimiy hamda navqiron Qo`qon shaharlari o`rtasida joylashgan. Qadimda mo``jazgina qishloq bo`lgan Rishton hozirda usta kulollarning say`i - harakati bilan rivojlangan, dunyoga dong'i ketgan kulolchilik markazlariga biriga aylangan.

Ana`anaviy tarzda avloddan avlodga o`tib kelayotgan loyni kuydirish san`atiga rishtonlik ustalar o`ziga xos va yorqin ko`rinish bag'ishlaganlar. Ularning o`ziga xos badiiy uslubi boshqa kulolchilik maktablaridan, jumladan, qo`shni viloyat va davlatlarda yaratilgan sopol buyumlardan tubdan ajralib turadi. Rishton kulolchilik san`ati oxirgi ikki asr mobaynida gohida gullab yashnadi, gohida esa boshidan og'ir kunlarni ham o`tkazdi, biroq, o`zining betakrorligini aslo yo`qotmadi. Bu haqida san`atshunos ustoz Kodzayeva Lyudmila Xodji-Mirzayevna[10] "Rishton nafaqat saqlab qola oldi, balki 800 yil mobaynida eng go`zal xususiyatlarini ma`lum darajada rivojlantirib, yillar to`zonidan asray oldi; uslubiy yagonalikka avaylandi – shakllarning erkin bezagi, gullar, naqshi, lojuvard va feruz ranglarning mavji"- deb yozadi.

Darhaqiqat, Rishton kulolchilik san`ati o`zining badiiy uslubi va ranglarining o`ziga xosligi bilan boshqa kulolchilik maktablaridan farqi, an`analari va ifodaviy tilini davrlar sinovidan omon saqlagan etuk milliy kulolchilik maktablarimizdan biri sanaladi.

Rishton kulolchiligini farg'ona yoki umum o`zbek kulolchiligidan alohida o`rganish mumkin emas. Chunki, Farg'ona vodiysining Qo`qon, G'urumsaroy, Andijon kabi kulolchilik markazlarining an`analari bilan Rishton kulolchiligini o`zaro bog'liqligi haqida manbalarni uchratamiz. Qolaversa, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi ko`hna kulolchilik maktablarining ayrim uslublari bilan ham o`xshashliklarni ko`rishimiz mumkin. Hattoki, qo`shni Tojikiston davlatining

[10] Людмила Кодзаева (Кодзати).Традиции и мастера Риштана. Альбом-каталог. Т.; 1998.

Konibodom, O`ratepa, Chorku kabi kulolchilik markazlari bilan ham yaqinligi yo`q emas.

Farg'ona kulolchiligining ayrim jihatlari bronza davridan beri ma`lum ekanligini unutmagan holda, uni ildizlariga nazar tashlaydigan bo`lsak, hozirgi Farg'ona vodiysi eramizdan oldingi II-I asrlarda Parkiana davlati nomi bilan tarixga kirgan. Bu davlat tarixidan bilamizki, o`sha davrdayoq kulolchilik san`atining ilk kurtaklari yaxshi shakllangan. Biroq, qadimgi davrdan boshlab to XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo`lgan davr rishton kulolchilik san`ati juda ham kam o`rganilgan. Bu esa o`z-o`zidan arxealogik qazishma ishlari kam olib borilganidan dalolat beradi.

Kulollar orasida hozirgacha yaxshi saqlanib kelayotgan rivoyatlarga ko`ra qadimiy rishton kulolchilik shaharchasi zamonaviy Rishtonning Sohibi Xidoya mozori yaqinida joylashgan Chinnigaron mahallasi o`rnida bo`lgan ekan. Ba`zi bir ma`lumotlarga ko`ra esa Rishton kulolchiligining boshlanishi XII asr boshlariga to`g'ri keladi (ba`zan esa X asr oxiri deb ham yuritiladi) va Samarqand hamda Buxorodan ko`chib kelgan kulollar bilan bog'liq deb qaraladi. Boshqa ma`lumotlarga ko`ra esa uni aksi bo`lib, XIV asr oxirlari va XV asr boshlarida Rishtonning Daxbed mahallasidan chiqqan kulollar Samarqandga ko`chib borishadi va u erda naqsh solingan idishlarni ishlab chiqarishni yo`lga qo`yadilar, hamda me`morlik inshootlarini badiiy bezash ishlarida ham faol qatnashadilar. O`sha paytda rishton kulollari yashagan ko`cha hozirga qadar ham Daxbed ko`chasi deb yuritiladi. Har ikki rivoyatda qanchalik haqiqat borligini bilmadig-u ammo, Samarqand va Rishton kulolchilik maktablarining o`zaro yaqinligi mavjud .

XIX asr oxirlarida, ya`ni 1889 yili Toshkent Farg'ona temir yo`lini ishga tushishi bilan Chor Rossiyasining Sankt-Peturburg shahridan ommaviy tarzda rossiya chinni buyumlarini tashib kelinishi natijasida Rishton kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish sur`ati pasayib ketadi. SHunga qaramasdan rishtonlik kulollari o`z kasbiga bo`lgan sadoqatini yo`qotmadilar.

1897 yili Parijda o`tkazilgan butun jahon amaliy san`at ko`rgazmasida Rishtonlik usta Mazoir, usta Abdullolarning ijod namunalarini ruslar olib borishadi

va Yevropaning o`sha davrda eng zo`r sanalgan mayolikalari bilan raqobatbardoshlikda ulardan sira ham qolishmasligini amalda isbotlaydilar. Bu paytdagi rishton kulollarining ijod namunalari dunyoning juda ko`plab davlat muzeylari va shaxsiy kollektsiyalaradan joy oladi. Ammo, ularni yaratgan ustalar haqida esa juda ham kam ma`lumotlar saqlanib qolgan. Shunga qaramasdan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rishton kulolchilik san`atini o`rganish yo`lida ilmiy tadqiqot olib borishgan tadqiqotchi-olimlar bir ovozdan Rishton kulolchiligini "Farg'ona vodiysi kulolchilik maktabining beshigi"-deb tan oladilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rishton – O`zbekistondagi sirlangan sopol buyumlar ishlanadigan eng mashxur va qadimgi markazlardan biri edi.[11]

1918 yili "Chinnigaron" mahallasida birinchi kulolchilik arteli ishga tushadi va 1927 yilga kelib uni nomi "Yangi hayot" deb yuritiladi,1 unda 70 nafar kulol faoliyat ko`rsatadi. Bu davr katta ustalar Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov va yosh ustalar Haydar Shosalimov, uni o`g'li Soli Bachaev, Rustam Qosimov, usta Mazzoirning o`g'li Nishonboy Zoirov, Abdulqosim Boltaboev, O`lmas Ortiqovlar ijodi bilan bog'liq holda rishton kulolchiligi rivojlanadi. Bu ustalarning barchalari XX asrning birinchi yarmida ijod qilgan milliy kulolchilik maktabining vakillari, ustazodalar avlodidan bo`lganlar.

1960 yili "Yangi hayot" arteli asosida Rishton keramika zavodi o`z faoliyatini boshlaydi. Bu zavod faoliyati haqida fikr yuritar ekanmiz, uni afzalliklaridan ko`ra ko`proq zarari bo`lganligini ham alohida ta`kidlashimiz lozim. Chunki, zavodda bir xil qolipdagi buyumlarni "yuqoridan tushirilgan" reja asosida bajarilishi oqibatida ijoddagi erkinlik umuman yo`qoladi. Natijada esa ustalar o`zlarining bor mahoratlarini ko`rsatishdan maxrum bo`lganlar. Buni ustiga ishqorli, tabiiy bo`yoqlar o`rnini tarkibida rux qorishmasi bo`lgan sun`iy bo`yoqlar egallaydi. Rishton kulolchiligiga xos bo`lgan moviy buyumlarni ishlab chiqarish esa 30-yillardayoq yo`q bo`lib ketadi. Hayotdan mohir ustalarning o`tib ketishi bilan esa qadimiy uslublar ham yo`qolib boravergan. Ishlab chiqarilgan buyumlar

[11] Муаллифлар гурухи. Ўзбекистон санъати. Т.; 2001. 63-б.

esa mumtoz Rishton kulolchiligi an`analaridan yiroq bo`lib, yarim xromlangan Toshkent va G'ijduvon uslubida bajarilgan.

Shunga qaramasdan Rishton kulolchilik maktabi nafaqat so`nggi ikki yuz yil ichida, balki undan ham ko`proq davr va zamonlardan buyon o`zining betakror go`zal buyumlari bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Ayniqsa, Mustaqillik yillarida Rishtonlik kulollar unutilib borayotgan qadimiy uslub va an`analarni qayta tiklash bilan birgalikda ularni yangi badiiy ifoda vositalari orqali namoyon qilmoqdalar. Hozirgi vaqtda bu erda yapaloq sopol idishlarning kosa va lagan, uzun bo`yli byumlarning ko`za va xumlarning esa juda ham ko`p turlari ishlib chiqarilmoqda. Rishton kulolchilik maktabida buyumlar shaklining nihoyatda turfa xilligi ko`zga tashlanadi. Jumladan, kosalarning kosa, shokosa, qo`shquloq turlari bilan birgalikda don maxsulotlari uchun katta xumlar ham ishlab chiqariladi.

Rishton kulolchiligining mahalliy badiiy xususiyati, an`analari ko`p jihatdan buyumlarga mazmunan boy va rang-barang naqsh berishda ko`zga tashlanadi. Bularni orasida esa o`simliksimon naqshlar turli tumanligi bilan yana ham ajralib turadi. Ayniqsa, chorbarg, bodomguli, anorgul, barg, anor, sarv va o`simlik shoxlari-islimiy kabi mavzular ko`proq ommalashgan. Hozirda kulollar qadimiy mavzular va uslublarni biroz o`zgartirish orqali o`ziga xos yangicha obrazlar yaratishga erishmoqdalar.

2.2. O`zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan san`at arbobi usta SHarofiddin YUsupov ijodi.

"Usta Sharofiddin Yusupov Farg'ona ishqorli moviy sopolchiligining o`ziga xos bo`lgan noyob texnologiyasi yo`qolib ketish xavfi bo`lgan murakkab bir paytda bu sohaga chinakam mehri, sadoqatini namoyish qilib, uning qayta tiklanishi va kelgusida ravnaq topishiga salmoqli hissa qo`shgan ajoyib kuloldir"- deb ta`rif beradi san`atshunos olim Akbar Xakimov. Bu gap, bu ta`rif garchi uning jo`shqin va hissiyotga to`la hayot tarziga mos kelmasa-da, Sharofiddin YUsupovni

“Rishton kulolchilik san`atining Paganinisi” deyish to`g’riroqdir[12]. Chunki, u erta saharda turib, qadimdan erkaklar uchun an`anaviy milliy libos sanlagan, oppoq yaxtagina kiyadi-da, oyog’ini sharqona chalishtirib, chordona qurib sevimli taxtasiga o`tiradi va o`ng qo`liga mo`yoqalamini olib, chap elkasini qisganicha idishlarini naqshlashga tushadi. Ustaning bu holatini kuzatib turib, beixtiyor skripkasini qo`liga olib, uning torlariga kamonchasini qo`yib, o`zining maftunkor kuyini chalishni boshlayotgan mashxur san`atkorlarga juda-juda o`xshab ketadi. Sharofiddin akani idishning sirtiga nafis naqshlarni zavq-shavq bilan chizayotganida chindan ham o`sha skripkachi, paganini eslatadi.

Darhaqiqat ustoz, san`atshunos - olim Akbar Xakimovni usta-kulol Sharofiddin Yusupovni Paganini bilan qiyoslashi juda ham o`rinlidir. Chunki, usta tomonidan yaratilgan biri-biridan go`zal va betakror kulolchilik buyumlari, buyumlari emas, ularni har birini badiiy asar desak mubolag’a bo`lmasa kerak, ana shu asarlar ham asrlar osha o`zining maftunkor ohangini taratib, rishton kulolchilik san`atinig noyob durdonalari haqida kelajak avlodga so`zlab beradi deyish mumkin.

Sharofiddin Yusupov ustazodalar avlodidan bo`lib, u 1945 yili usta-kulol Isomiddin Yusupovlar xonadonida tavallud topgan. Ustaning ta`kidlashicha, ularning xonadonida 50-yillarning o`rtalarida 40 nafar usta va shogird ishlaydigan katta ustaxona bo`lgan. Bundan ko`rinib turibdiki, ustaning bolalik chog’lari ustaxonada o`tgan.

[12] Акбар Хакимов. Риштонлик моҳир кулол. San’at. Ўзбекистон Бадиий Академияси журнали. 4/2015. 7-бет.



Sharofiddin Yusupov bilan ijodiy muloqotdan lavha.

1960 yili Rishtonda keramika zavodi qurilishi munosabati bilan otasining ko`pgina asbob-uskuna va jihozlari zavod ixtiyoriga olinadi. Uylarida esa otasi va bir necha shogirdi bobosidan qolgan an`analarni davom ettirib qoladi. 1959 yili otasi Isomiddin aka vafot etganlaridan keyin esa Sharofiddin aka otasinig shogirdi bo`lgan usta Xotamboy Polvonovga shogirdlikka tushadi.



“Quyosh” lagan

1960 - yillar keramika zavodi qoshida ijodiy ustaxona tashkil qilinadi. Ushbu ustaxonada Sharofiddin aka usto Muso Ismoilov va usto Hakimjon Sattarovdek taniqli kulollardan ham ko`p narsa o`rganadi. Usta Xolmat akadan esa anor va qumg'on tasvirini chizish sirlarini bilib oladi. Bu davrda kelib loy va mo`yqalam bilan ishlash bo`yicha dastlabki ko`nikma va malakalarni o`zlashtiradi. Bu paytga kelib ko`pgina kulollar Rishton keramika zavodidagi mahalliy sanoat tizimida ishlashga o`tiganligi bois mashxur Rishton moviy sopolchilik an`analari yo`qolib borayotgan edi.

1974 yilga kelibgina yo`qolib ketish xavfi ostida turgan avloddan-avlodga o`tib kelgan azaliy texnologik jarayon va badiiy usullarni qayta tiklashga erishildi. SHarofiddin Yusupov Qo`qonda tashkil qilingan ijodiy ustaxonada ishlash bilan birga Rishtonni o`ziga xos bo`lgan mashxur sopolga ishlov berish an`analarini tiklashga kirishdi. Ustaxonada qo`l tegirmoni yordamida tayyorlagan buyumlari bilan ko`rgazmalarda ishtirok etishni boshlab yubordi.

1976 yildan boshlab Sh.Yusupov tayyorlagan buyumlar ko`pchilik e`tiborini tortadi va u ko`plab ko`rgazmalarda sovrinli o`rinlarni egallaydi hamda xizmatiga yarasha mukofotlar bilan taqdirlandi. SHarofiddin aka Farg'ona an`anaviy sopolchiligini qayta tiklash va bilimini yanada oshirish maqsadida Tojikistonning Konibodom, Chorku, Isfara kabi kulolchilik markazlariga shuningdek Farg'onalik moxir kulollar faoliyat olib borayotgan boshqa markazlarga ham boradi va u joylardagi kulollar bilan o`zaro fikr almashadi. San`atshunos-olimlar, kulollar bilan bilan maslahatlashgan holda muzey fondlari, xususiy jamg'armalar bilan yaqindan tanishadi.

1978 yildan yana o`zining qadrdon Rishtoniga qaytadi va ijodiy faoliyatini boshlab yuboradi. Ammo, bu paytlarga kelib Rishtonda an`anaviy, tabiiy ishqor tayyorlanilmasdi va ko`pchilik boshqa ustalar sun`iy yo`l bilan olinadigan ruxli ishqorda ishlashga o`tib ketishgan edi. Lekin, Farg'ona vodiysidagi moviy sopolchilik markazlaridan yana biri bo`lgan G'urumsaroyda esa kulollar aynan shu xildagi ishqordan samarali ravishda foydalanishar edi. Shu boisdan ham Sharofiddin aka Xakim Sotimov, Maxmud Raximov, Maqsudali Turopov kabi

G’urumsaroylik etakchi usta-kulollar bilan tanishadi va ulardan tabiiy ishqor olish sirlarini o`rganadi.



“Besh yulduz” lagan

Sharofiddin Yusupov yasagan sopol buyumlar yuksak did bilan ishlanishi, nafisligi, naqsh, bezaklarining yuksak mahorat bilan ifodalanishi bilan alohida ajralib turadi. U mo`yqalamda chizishning turli usullarini qo`llab, syujetlarning kompozitsiyasi echimida ham, ranglarni turli tusda tovlantirib, ularni bir-biri bilan uyg’unlashtirishda ham mukammallikka erishadi. Sh.Yusupov asosan katta idish

lagan tayyorlash va bezatish bilan shug'ullanadi. U tayyorlagan ko`pgina bezakli laganlardagi (diametri 30-40 sm) naqshlarni idish tubiga chiziladigan barqaror bezaklar simmetrik va assimmetrik shaklda markazga ishlangan, buyumga jozibadorlik bag'ishlovchi ko`p figurali naqshlarga ajratish mumkin.

Sh.Yusupovning yassi idish tubiga chizgan kompozitsiyalarini o`ziga xos jihatlariga ko`ra guruxlarga ajratgan holda, quyidagicha tasniflash mumkin:

"Chorbarg" to`rt bargli bezakning shoshbarg (olti bargli) va xashtbarg (sakkiz bargli) ko`rinishli bezak motivi;

An`anaviy "bodomgul" bezagining alohida, juft va undan ko`p sonli tasviri;

Mevasi va shoxi; an`anaviy ashyolar-qumg'on, pichoq tasviri;

Sarv, gulposhsho, yulduzgul, chetan, chayon, qo`chqorak (qo`qor shoxi), chashmigov (sigir ko`zi) bezaklar va boshqa o`simliksimon, handasaviy va zoomorf mavzularning uslublashtirilgan unsurlari.

Har bir guruhdagi kompozitsiyada umumiy fikr mujassam bo`lib, ularda naqshlar shu mazmunni ifodalaydi. Natijada, kompozitsiyasi echimi jihatidan bir-biridan ajralib turadigan laganlar turkumi hosil bo`ladi. Musiqaga qiyoslansa, ularni "gullash" ("bodomgul" motivi), "hosildorlik, avlodlar davomiyligi" (anor motivi), "natyurmort" va "manzara chizmasi" va boshqa mavzudagi o`ziga xos syuitalar deyish mumkin[13].

[13] Акбар Хакимов. Риштонлик моҳир кулол. San'at. Ўзбекистон Бадиий Академияси журнали. 4/2015. 9-бет.



“Shoshgul” lagan

Sharofiddin akaning “bodomgul” mavzusidagi kompozitsiyalarida O`rta Osiyo kulolchiligi bezaklarida uchraydigan ikki xil ko`rinishdagi naqshdan foydalaniladi. Bular: keng qo`llaniladigan bodomi chetan (ingichka chiziqlar bilan to`ldirilgan) va katta o`lchamli “bodomguli” ichida takrorlanadigan siluet (bir rangda ishlangan kontur sirt), bodomi gajak - atrofi o`simliksimon jimjimali chiziq bilan o`ralgan katta bezak ko`rinishidagi alohida yakka motiv tasvirlangan kompozitsiyada boshqacha ma`no ifodalanadi. Unda kuch-qudrat, o`ziga ishonch hissi bo`rtib turadi. Anor mevasi va shu kabi boshqa mevalar hamda o`simliklarning chiroyli shoxlari, guldastalar o`rtasida turgan chiroyli qumg’on

tasvirlangan idish kishida ko`tarinki kayfiyat, bayramona xissiyotni uyg'otadi. Usta yasagan idishlar kompozitsiyasida yana boshqa bir an`anaviy ashyoviy bezak – pichoqning uslublashtirilgan tasviri uchraydi. Pichoq esa xalq tasavvurida yigitning kuchliligi ramzi, uni xavf-xatar, kulfat-balodan asraydigan o`ziga xos tumori sanaladi. Ushbu motiv ustaning qumg'on tasvirlangan kompozitsiyalarida ko`proq qo`llanadi. Unda qumg'onning ikki tomonida ikki pichoq tasvirlanadi yoki atrofi shoxchalar bilan o`ralgan bodom motivini eslatadigan tarzda alohida figura sifatida ifodalanadi.



"Anor gulli" lagan

Usta asarlarining o`ziga xos eng muhim jihati ularda an`anaviy, avvaldan qo`llab kelingan bezaklarga yangicha obraz va yangicha mazmun bag'sh etilganida namoyon bo`ladi. Bu asarlardagi naqsh, bezaklarda, ulardagi obrazlarda ustaning kompozitsiyani yaratayotgan chog'idagi kayfiyati, ichki kechinmalari aks etadi. SHu bois u yaratgan buyumlar boshqa bir ustani ishiga o`xshamaydi. SHarofiddin aka bezaklar obrazini yaratayotganida sopolchilik texnologiyasi xususiyatlari va undagi rang o`zgarishlardan samarali foydalanadi. SHu maqsadda kobal't-kumush rang bo`yoqni ko`proq qo`llaydi. Ushbu bo`yoq esa buyumdagi ko`k tusni bo`rttirib ko`rsatadi. Misni qo`shish undagi moviy tusni yanada yorqinlashtiradi. Marganetsni qo`shish orqali esa kompozitsiyadagi bezaklarda rqin jigarrang tus hosil qilishga erishadi. Ayni tus kompozitsiyaning lirik ohangini kuchaytirib, buyumni yanada jozibador qiladi.

Sh.Yusupov o`zi yasagan buyumlar bezaklari kompozitsiyasiga yorqinlik, jozibadorlik baxsh etadigan barcha vositalarga mohirona "dirijyorlik" qila oladi. Iste`dodli ijodkor kashf etgan yangiliklar bevosita an`anaviy Rishton sopolchiligiga xos xususiyatlar zaminida paydo bo`lgani bilinib turadi. Usta o`ziga xos keng ijodiy tasavvurga ega bo`lishiga qaramasdan, an`anaviy bezak motivlariga ko`proq e`tibor qaratadi va ularga tayanib, yangicha echimlar topadi. Ustaning eng sevimli motivlaridan biri qadimdan to`kin-sochinlik, farovonlik, avlodlar davomiyligi sanalgan anor tasviridir. Anor usta yasagan barcha buyumlarda tasvirlanadi. Lekin ularning hech biri boshqasiga aynan o`xshamaydi. Usta ijodidagi "qumg'on" motivi to`g'risida ham shunday deyish mumkin. Sh.Yusupov anor, qumg'onni o`simliksimon naqshlar bilan yonma-yon holda tasvirlab o`ziga xos, betakror kompozitsiyalar hosil qilish orqali an`anaviy motivlarning yangicha xilma-xilligiga erishadi. Sh.Yusupov idish chetini bezab turadigan bezak berish uchun handasaviy ("chetan", "shaxmat", "panjara", "zanjir", "no`xat") hamda o`simliksimon ("islimi hoshiya", "bodomgul", "islimi qalampir", "taroqisang", "chashmigul") naqshlaridan foydalanadi.

Mohir kulol yaratgan buyumlardagi "qo`chqorak zanjira", "chashma gov", "chashmi bulbul", "baliq" singari zoomorf unsurlar ham ustaning o`ziga xos

dastxati juda yorqinligidan dalolat beradi. Uning idish markaziga ishlangan “anor”, “qumg’on”, “mehrob”, “olma”, “bodom” mavzusidagi bezaklari “gajak barg”, “to`pbarg”, “bargi madoxil” naqshlari bilan uyg’unlashadi.


Sh.Yusupovning 2005 yilda tayyorlagan buyumlari bezaklari o`zining kompozitsion tuzilishi va ranglari echimi jihatidan e`tiborni tortadi. Ularda uyg’urcha bezak motivlari “qora qalam”, “patnis”, “tumor” ashyoviy naqshlari, shuningdek, “chayon” motivi bezak sifatida qo`llangan. Usta bezak, naqshlarga yashil tus beruvchi och kulrang tusli xrom oskidini qo`llagan holda, o`zi yaratgan buyumlarda XX asrning 30-yillarida qo`llanilgan Rishton sopolchiligi uchun xos uslubni hosil qilishga erishadi. “Sarv” motivi, o`rta asrlar me`morchiligining uslublashtirilgan tasvirini ham usta jodidagi yangiliklar qatoriga kiritish mumkin. Ayni motivlar uning ijodida 1980-yillarda paydo bo`lgan. Ustaning barcha buyumlari bezaklari ranglarining yorqinligi va bir-biriga uyg’unligi bilan e`tiborni tortadi. Keyingi yillarda Sh.Yusupov G’urumsaroy sopolchiligi motivi va uslublariga murojaat qila boshladi. Bu uning 2010-2012 yillarda tayyorlagan qator laganlarining keng xoshiyasidagi bezaklarda ko`rinadi. Ayni laganlarda kompozitsiya o`rtasida anor butog’i va qumg’on, butog’ida turgan anor tasvirlangan.

Sh.Yusupov ajdodlari yashab o`tgan, o`zi tug’ilib o`sgan yurtni juda sevadi. U afsonaviy Anteyga o`xshab, Farg’ona zaminidan quvvat oladi. Ustaning o`ziga xos ijodi Rishtonning an`anaviy ko`k-oq-moviy sopolchiligi zaminida ravnaq topmoqda bu ustaning yassi idishlarga chizgan naqsh-bezaklarining ifoda uslubida va ulardan anglashiladigan ma`noda yaqqol bilinadi. Ushbu idishlarning bezaklarida, ulardagi ranglar tovlanishida ustaning noyob mahorati aks etadi. Ustaning shu paytgacha yaratgan buyumlari ham yangi yaratayotgan asarlari ham o`ziga xos yorqin badiiy xodisadir. Hayot va ijod esa davom etmoqda. Sh.Yusupovning noyob ijodi, u to`plagan tajribalarga esa kelgusida erishiladigan ijodiy yutuqlar va yaratilajak yangi durdona asarlar uchun o`ziga xos debocha-uvertyura, deb qarash mumkin.

Sharofiddin akaning xonadoni barcha uchun hamisha ochiq bo`lgan ijod maydoni desak to`g’ri bo`ladi. Yillar davomida ortirgan boy tajribasini xorijlik mehmonlarga ham maxalliy ustalarga ham joni dili bilan o`rgatadi



G’urumsaroylik kulol Vaxobjon Buvaev va Usta Sharofiddin Yusupov



Ushbu shajara akademik Sharofiddin Yusupov va bir qator Rishtonlik kulollar tomonidan tuzildi.

2.3. Mohir kullol, usta Rustam Usmonov ijodida milliylik.

Rishtonda asrlar davomida ko`plab mohir ustalar sopolchilik san`atining avloddan-avlodga o`tib kelishida tinmay izlanib, ijod qilib kelmoqdalar. XX asrda qadimgi ustalarning an`analarini davom ettirish bilan birga unga yangicha yondoshayotgan ustalar ham etishib chiqqan. Ana shunday ustalar sirasiga “Usta naqqosh” Rustam Usmonov kiradi.

Rustam aka 1954 yili Rishton kulolchilik san`atining markazi bo`lgan Roshidon mahallasida dunyoga kelgan. Yoshligidanoq usta kulollar Ibrohimjon Komilov, Xakimjon Sattarovlarga shogirdlikka tushib, ulardan kulolchilik sir-asrorlarini o`rganadi.

O`rta umumta`lim maktabini tamomlaganidan so`ng yoshlik chog’laridayoq kulolchilikka san`atiga uyg’ongan muhabbati unga tinchlik bermaydi. Qo`lidan qalamini qo`ymay ijod qilib, tajriba orttiradi va hayotdagi asosiy maqsadi yo`lidagi katta qadamini tashlab, Toshkentdagi sobiq Nikolay Ostrovskiy nomli Teatr va Rassomlik hozirgi Milliy rangtasvir va Dizayn institutiga o`qishga kiradi va rishtonlik ustalar ichida yagona maxsus oliy ma`lumotli mutaxasssisga aylanadi.

Institutda 1980-85 yillar davomida taxsil olib, sanoat grafikasi mutaxassisligiga ega bo`ladi. O`qishni tamomlab, o`zi tug’ilib o`sgan Rishtonga qaytadi. Bu vaqtlarda avlodan-avlodga o`tib kelayotgan kulolchilik san`atining noyob usullari yo`qolib borayotgan, ko`plab ustazodalar olamdan o`tgan bir davr edi. Sobiq Ittifoq siyosatiga ko`ra ming yillar davomida sayqal topgan ishqorli moviy tusli Rishton kulolchilik san`atini daromad manbaiga aylantirish maqsadida kulolchilik zavodi tashkil qilinadi. Shu zavodda bosh musavvir sifatida ish boshlagan Rustam aka bir xil qolipdan chiqib kelayotgan maxsulot kulolchilik san`atini rivojiga emas, aksincha uni inqiroz olib kelishini ta`kidlaydi. Biroq, zavod mutassadi rahbarlari ularning eshitishni ham istashmaydi. Natijada kulolchilik zavodining maxsulotlarini sotilishi keskin kamayib ketadi. Buni oqibatida esa kulollarning ayrimlari boshqa sohalarga o`tib ketsa, yana birlari esa bu hunarni befoyda kasb hisoblab, butunlay shug’ullanmay qo`yadilar.



Usta Rustam Usmonov bilan uy-muzeyidagi ijodiy muloqot

Shunday og’ir bir paytda Rishtonlik kulollar orasida birinchilardan bo`lib Rustam aka oilaviy kulollar guruxini tuzib, mustaqil ish boshlaydi. O`zi yashab turgan xonadonida katta va kichik xumdonlar quradi, mehnat qilishi uchun, yangi mahsulotlar yaratish uchun zarur bo`lgan barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Qadimdan qolgan, unutilib ketayotgan kulolchilik san`atining nozik qirralariga qayta jon bag’ishlashga harakat qiladi. Jumladan, Rustam akaga xos bo`lgan o`ziga xoslik: qadimiy naqshlarga, bezaklarga ortiqcha o`zgarishsiz sayqal bergan holda milliylikni aks ettirishida namoyon bo`ladi.



Charhi “Yulduz” lagan

Rishtonning moviy va feruza rangli sopoli ishqor sababli yuzaga keladi va o`zida milliylikni namoyon qiladi. “Ishqor” qadimiy va an`anaviy sir (glazur’) bo`lib, u tog’ yonbag’irlarida o`suvchi, nomi “qirq bo`g’in” deb ataladigan mahalliy o`simlikdan tayyorlanadi. Qadimdan ustalar ishqorni hosil qilish uchun kuz faslida qirq bo`g’inni yig’ishtirib olish maqsadida 5-6 kunlik safarga chiqqanlar. Ularning an`analarini davom ettirgan holda Rustam aka ham qirq bo`g’inni yashil holatda yig’ib oladi. O`simlik yonib turgan olov ustiga qo`yiladi va uni yonib ketmasligi uchun ustadan doimo xushyor turishini talab qilinadi. Olov ta`sirida qizdirib, kuydirilgan o`simlikdan shlak hosil bo`ladi. Tayyor bo`lgan maxsulot ishning bir qismi xolos. Usta uni qoplab, ustaxonaga olib keladi va maxsus xumdonda $1350^0$ daraja issiqlikda eritadi. Sovitilganda u kristall holatida bo`ladi. Tayyor bo`lgan kristallni maydalash uchun esa tegirmonga solinib, kukun holatiga kelguniga qadar maydalanib, suv bilan aralashtiradi, tayyor bo`lgan maxsulot ishqor deb ataladi. Hozirgi kundagi zamonaviy yo`l bilan olinadigan sirlar (kimyoviy) esa qadimgi ranglarni chiqarishga qodir emas.

Shunday tabiiy usul bilan olingan ishqor yordamidan oqilona foydalangan Rustam akaning tinimsiz izlanishlari tez orada o`z samarasini beradi. Kulol qo`lida sayqal topgan turli-tuman kosa, lagan, tovoqlar o`tgan asrning 80 yillardan boshlab muntazam ravishda ko`rgazmalarda namoyish qilana boshlanadi.

Rustam aka 1991 yilda, ya`ni Mustaqil O`zbekistonning ilk kunlaridayoq rassomlar uyushmasi a`zoligiga qabul qilinadi. 1994 yili ustaning shaxsiy ko`rgazmasi Toshkentdagi Dekorativ-amaliy san`at muzeyida tashkil qilingan. 1997 yildan esa O`zbekiston xalq ustalarining “Hunarmand” uyushmasi a`zosi hisoblanadi. Rustam aka sopol buyumlarga juda ham go`zal va bejirim naqshlar ishlagani uchun “usta naqqosh” nomi bilan mashxur bo`ladi.

Rustam aka yurtimizdan tashqari xorijiy davlatlarda ham ko`plab ko`rgazmalarda faol ishtirok etib kelayotgan usta-kulollardan hisoblanadi. Jumladan, 1996 yili YAponiyada ijodiy safarda bo`lib, “Butun dunyo kulolchilik san`ati” ko`rgazmasida faol qatnashib, o`zbek milliy kulolchilik san`atini dunyoga

tanilishida o`zining ulkan hissasini qo`shadi. 1997 yili ham Yaponiya davlatining Komatsu shahridagi halqaro ko`rgazmada ham faol ishtirok etadi.



“Qora qalam” lagan

2000 yili Germaniyaning Gannover shahrida bo`lib o`tgan “Ekspo-2000” halqaro ko`rgazmada, 2001 yili Qozog’itonning Alma-Ata shahrida, 2002-2003 yillari Rossiya davlatining Qozon va Novosibirsk shaharlarida tashkil qilingan halqaro ko`rgazmalarda ham faol qatnashadi. 2004 yili esa doimiy hamkori bo`lgan Samarqanddagi “Al’fiya” galereyasi tashabbusi bilan Rustam Usmonovning

shaxsiya ko`rgazmasi Rossiya davlatining poytaxti Moskva shahrida tashkil qilinadi.

2005 yili O`zbekiston Badiiy Akademiyasining Zamonaviy ko`rgazmalar markazida Afg'onistonlik kulollar bilan hamkorlikda tashkil qilingan ko`rgazmada ham faol qatnashadi. 2004 yildan to 2009 yilga qadar O`zbekiston xalq ustalarining Frantsiya davlatining Parij shahridagi YUNESKO tashkilotining shtab-kvartirasida va Leon, Bojans kabi shaharlardagi ko`rgazmalarda ham faol ishtirok etadi.

2010 yili Yaponiya davlati Nara shahrining 1200 yillik yubileyiga bag'ishlab tashkil qilingan halkaro festivalda ham munosib ishtirok etadi. 2005 yildan boshlab to 2014 yilga qadar, qarayib 10 yil davomida Amerika Qo`shma Shtatlarining Santa-Fe, N'yu-York, Vashington kabi markaziy shaharlarida tashkil qilingan xalqaro amaliy san`at ko`rgazmalarda muntazam ravishda qatnashib kelgan. Bu ko`rgazmalarga bag'ishlab Farg'ona Haqiqati gazetasining 2009 yil 15 iyul', chorshanba sonida "Vashingtonnni lol etgan kulol" mavzusida maqola chop qilingan. Darhaqiqat, usta kulolning betakror va bejirim, go`zal kulolchilik asarlari har qanday kishini befarq qoldirmaydi.

Rustam aka boshchiligidagi oilaviy kulolning xonadoni kulolchilik buyumlaridan tashkil topgan ko`rgazma zaliga, uy-muzeyiga, xorijlik mehmonlarning sevimli maskaniga aylangan. Bu erga Rossiya, Angliya, Amerika, Frantsiya, Germaniya, Avstriya, Ispaniya, Shvetsiya, Yangi Zellandiya, Yaponiya, Xitoy, Koreya kabi davlatlardan kelgan mehmonlar usta-kulolning uy-muzeyini zavq-shavq bilan tamosha qilish bilan birgalikda Rustam akaning ish faoliyati bilan amalda yaqindan tanishish imkoniyatiga ham ega bo`lmoqdalar. Xorijlik mehmonlar ustaning mohoratidan olgan taassurotlarini esdalik daftariga qoldirishdek baxtga muyassar bo`lishlaridan o`zlarini baxtiyor ekanliklarini yashirib o`tirmaydilar.



Usta Rustam Usmonov uy-muzeyida

Xorijlik san`at shaydolari va mehmonlarning talab, istaklari va buyurtmalariga binoan usta o`zining ijod namunalaridan xorijiy davlatlarga, shaxsiy jamg'armalarga ham yuborib turadi.

Usta Rustam Usmanov qo`lida sayqal topgan kulolchilik asarlari O`zbekiston Davlat san`at muzeyi, O`zbekiston Badiiy Akademiyasining badiiy ko`rgazmalar Direktsiyasi, O`zbekiston Dekorativ-amaliy san`at muzeyi, Farg'ona viloyati O`lkani o`rganish muzeyi, Rossiya davlatining Moskva shahridagi davlat ermitaj muzeyi, SHarq xalqlari muzeyi. Sankt-Peterburgdagi etnografiya muzeylari va boshqa ko`plab shaxsiy jamg'armalardan joy olgan.



"Shonagul" lagan


Bundan tashqari Rustam aka rangtasvir sohasida ham sermaxsul ijod qilib keladilar. Ular qalamiga mansub bo`lgan so`lim Farg'ona tabiati, xushmanzara bog'lari, kishilarning kundalik turmush tarzini aks etiruvchi asarlari ustaning uy-muzeyidan joy olgan.

Rustam aka Usmonovning o`ziga xos ijodi o`g'li Damir Usmonov va shogirdlari Ruslan Shabiyev, Hayotjon Raximov, Azizjon Xoshimov, Dilmurod Raxmonov, Ro`zmatjon Marasulov, Raxmatillo Qambarovlar hamkorligida davom etib kelmoqda. Ularga yillar davomida to`plagan tajribalarini o`rgatishda tinimsiz mehnat qilayotgan ustaning ijodiga ulkan zafarlar tilaymiz.



Rishton kulolchilik tarixiga nazar

Ushbu shajara usta Rustam Usmonov va bir qator Rishtonlik kulollar ko`rsatmasi asosida tuzildi.


Уста Хакимжон Саттаров
Уста Иброхимжон Комилов
Уста Рустам Усмонов
Уста Дамир Усмонов
Уста Хусанбой Эхсонов
Азизжон Хошимов
Шабиев Руслан
Шавкат Лутфиллаев
Рахимов Хайтжон

II – bob bo`yicha xulosa.

Rishton kulolchilik san`ati o`zining badiiy uslubi va ranglarining o`ziga xosligi bilan boshqa kulolchilik maktablaridan farqi an`analari va ifodaviy tilini davrlar sinovilardan omon saqlagan etuk milliy kulolchilik maktablaridan biri ekanligida ko`zga tashlanadi. Buni O`zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi usta Sharofiddin Yusupov ijodida ko`rishimiz mumkin. San`atshunos olim Akbar Xakimov usta-kulol Sharofiddin Yusupovga "Paganini" –deb bergan ta`rifini o`zidan ham kulolchilikning sehrli ohangini xis qilish va qalb qo`ri bilan uni tinglash mumkinligini bildik. Usta qulida sayqal topgan buyumlar o`zining an`anaviyligini yo`qotmagan holda zamonaviy talablarga ham to`liq javob beradi. Bu ustoz haqida, uni serqirra ijodiga bag'ishlangan teleko`rsatuv va xujjatli fil'mlar tayyorlab o`rta umumta`lim maktablari o`quvchi-yoshlari, kasb-hunar kollejlari va oliy o`quv yurtlari talabalariga etkazish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Shuningdek, usta kulol Rustam Usmonov ijodidagi milliylik an`analari, Yaponiya davlati bilan yo`lga qo`ygan hamkorlik aloqalarini darslik va o`quv qo`llanmalarga kiritish ham maqsadga muvofiq bo`lar edi.

III-bob. Mustaqillik yillarida kulolchilikka berilgan e`tibor

3.1. Usta Alisher Nazirov ijodida milliylik.



Usta Alisher Nazirov

Ko`plab ustalar avlodining sa`yi harakati tufayli Rishton badiiy kulolchilik san`atining qadimiy an`analari hozirga qadar o`zining milliyligini yo`qotmasdan kelmoqda. Ana shunday “usta naqqosh”lardan biri Alisher Nazirov bo`lib, u 1958 yili Rishtonda tavallud topgan.

Juda yoshligidan boshlab kulolchilik sirlarini egallashni boshlagan Alisher aka kulolchilikning barcha bosqichlarida ishlab o`z malakasini oshiradi. Jumladan, soz tuproqdan loy tayyorlash, uni tindirish, undan buyum yasash, xompaz qilish, bo`yoq tayyorlash, naqsh chizish, sirlash va pishirish kabi barcha bosqichlarda ishlab tajriba orttiradi.

U insonni nomi Rishton kulolchilik san`atidagi juda ko`plab ijobiy o`zgarishlar bilan bog’liqdir. Mustaqillikning ilk yillardayoq, ya`ni 1993 yili O`zbekiston Badiiy Akademiyasi Ijodkorlar uyushmasi a`zoligiga qabul qilinadi. Rishton kulolchilik zavodida bosh rassom bo`lib ishlagan. O`zbekistonlik usta kulollar orasida birinchilardan bo`lib Yaponiyada tajriba almashadi, juda ko`plab Halqaro ko`rgazmalarda faol ishtirok etadi. Usta ishtirok etgan ko`rgazmalar shu darajada ko`pki, ular haqida quyida alohida to`xtalib o`tamiz. “Tashabbus” Respublika xalq hunarmandlari tanlovining eng birinchilari qatorida g’olib bo`lgan ustalardan sanaladi. 1997 yil O`zbekiston Respublikasi hunarmandlar uyushmasi Rishton xududiy bo`limi tashkil etilib uzoq yillar boshqaradi “Hunarmand” Xalq ustalari assosatsiyasiga ko`p yillar rahbarlik qiladi.

1998 yili Usta Alisher Nazirov tashabbusi bilan Rishtonda yoshlarga kulolchilik sirlarini o`rgatish uchun “An`anaviy usta shogirdlar maktabi” ochiladi. Usta ijodiy faoliyatidan ajramagan holda u erda yoshlarga ustozlik qiladi. Hozirgi kunda esa Rishton San`at kollejida badiiy kulolchilik yo`nalishida shogirdi Sanginov Baxtiyor kulolchilikning nazariy asoslarini talaba-yoshlarga o`rgatib kelmoqda. Ustoz Alisher Nazirov xonadonida talabalar egallagan nazariy bilimlarini amalda sinab ko`radilar va amaliy mashg’ulotlarni ustaning o`zi shaxsan olib boradi.



Usta Alisher Nazirov shogirdlari davrasida

Allox tomonidan ustaga ijodiy faoliyati davomida naqqoshlikning nozik qirralari va sir-asrorlarini mahorat bilan ishlatish qobiliyati berilgan bo`lib, u sopol buyumning yassi yuzasida natyurmort kompozitsiyasini juda mohirlik bilan joylashtiradi va undagi detallar hajm hosil qilganini guvohi bo`lish mumkin. Bir vaqtlar Rishtonlik kulollar usta Mazoir, usta Abdullo, usta Muso Ismoilov, usta Ibroxim Komilov, usta Kimsanboy Abduqodirovlarning naqsh va bezaklariga taqlid qilgan bo`lsalar, endilikda mana shu an`analar asosida etalon darajasiga etgan “Alisher Nazirov uslubi”ga ko`plari taqlid qilishmoqda.

Alisher Nazirovga xos bo`lgan jihatlar xuddi avvvalgi ustalar qo`llagan uslubiga o`xshash bo`lib, Rishtonning mashxur badiiy buyumlarining yuzasi o`simliksimon naqsh bilan, barq urib gullab, yashnab turgan anor, bodom natyurmort kompozitsiyasi bilan, qumg’on tasviri bilan, ertaklardagi baliq va qushlarning ilohiy tasvirlari bilan to`liq to`ldirilib chiqiladi. Qadimdan kelayotgan

ramzlar va ularning turfa xil ko`rinishlari usta ijodida o`zining yangicha ko`rinishini namoyon qiladi



“Chorgbarg” lagan



“Bodom gulu” lagan

Shu bilan birgalikda esa boshqa xech bir usta avval qo`llamagan, faqatgina Alisher akagagina xos bo`lgan uslubni, ya`ni buyumning orqa tomoni ham bo`rtma naqshlar va bezaklar bilan boyitib, bezaydi. Hattoki, ustaning dastxati hisoblangan ismi-sharifining bosh harflari “AN” ham yozilishiga ko`ra islimiy naqshga o`xshab ketadi va buni ko`rgan odam uni ham bezak deb qabul qiladi.

Alisher Nazirov xech qachon bekor turmaydigan, tinimsiz izlanuvchan ustalar sirasiga kiradi.



“Shokosa”

Yangi uslublarni kashf qilish yo`lida tajribalar olib boradi. Uy-muzeyiga tashrif buyurgan har qanday odamni iliq kutib oladi va qiynalib, mashaqqatlar bilan o`rgangan bilimini, orttirgan boy tajribasini bajonidil o`rgatadi.

Usta qo`lida sayqal topgan Rishtonning turfa xil moviy sopol buyumlari Vatanimiz O`zbekiston davlat muzeylaridan tashqari Rossiya, Yaponiya, Frantsiya, Germaniya, Avstriya, Ispaniya, Buyuk Britaniya kabi ko`plab davlatlarning muzeylari va san`at shaydolarining shaxsiy jamg’armalarini ham bezab turibdi. Quyida usta Alisher Nazirov qatnashgan ko`rgazmalar solnomasini keltirib o`tamiz:

1989 – Germaniya. Gannover. Halqaro ko`rgazma.

1990 – Rossiya. Sankt-Peterburg. Rishton kulollari ko`rgazmasi.

1991 – Rossiya. Moskva. “An`an va ustalar” ko`rgazmasi.

1992 – O`zbekiston. Toshkent. “Navro`z-1992” Respublika ko`rgazmasi.

1993 - O`zbekiston. Toshkent. Rishton kulollari ko`rgazmasi.

1994 – Yaponiya. Kanadzava. A. Nazirovning shaxsiy ko`rgazmasi.

1995 – O`zbekiston. Toshkent. YUNESKO dasturi asosida tashkil qilingan O`zbekiston xalq ustalari ko`rik-tanlovi.

1995 – O`zbekiston. Toshkent. Mustaqillik kuni munosabati bilan tashkil qilingan ko`rgazma.

1995- O`zbekiston. Toshkent. BMTning 50 yilligi munosabati bilan “Moviy afsona” mavzusida tashkil qilingan ko`rgazma.

1996 - O`zbekiston. Toshkent. O`zbekiston va YAponiya xalqlari kulolchilik ko`rgazmasi.

1996 – Yaponiya. Komatsu. Rishton kulolari ko`rgazmasi.

1997 - O`zbekiston. Toshkent. “Mustaqil O`zbekiston” ko`rgazmasi.

1998 – Frantsiya. Parij. Halqaro kulolchilik ko`rgazmasi.

1999 – Qozog’iston. Alma-Ota. O`rta Osiyo xunarmandlari ko`rgazmasi.

1999 – Qirg’iston. Bishkek. Halqaro Hunarmandlar ko`rgazmasi.

2000 - Germaniya. Leyptsig. O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2001 – Germaniya. Myunxen. Kulolchilik ustalari ko`rgazmasi.

2001 – Germaniya. Myunxen. Rojdestvo yarmarkasi.

2001- O`zbekiston. Toshkent. “Tashabbus -2001” tanlovi g’olibi.

2001 –O`zbekiston. Toshkent. Mustaqillik bayrami munosabati bilan tashkil qilingan Respublika ko`rgazmasi.

2002 – Qozog’iston. Alma-Ota. O`rta Osiyo xunarmandlari ko`rgazmasi.

2002 – Germaniya. Myunxen. Halqaro amaliy san`at yarmarkasi.

2003– Frantsiya. Parij. O`zbekiston amaliy san`ati ko`rgazmasi.

2003- Italiya. Rim. O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2004- Yaponiya. Tokio. A. Nazirovning shaxsiy ko`rgazmasi.

2004- Rossiya. Moskva.“Moviy afsona” Rishtonlik kulollar ko`rgazma.

2005- Frantsiya. Parij. YUNESKO. O`zbekiston madaniyati kunlari.

2005- O`zbekiston. Toshkent. Rishton an`anaviy kulolchiligi.

2006- Yaponiya. Tokio. A. Nazirovning shaxsiy ko`rgazmasi.

2006- Rossiya. Yaponiya. O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2007- Ispaniya. Madrid. Amaliy san`at ko`rgazmasi.

2007- Rossiya. Novosibirsk. “Xo`ja Nasriddin izidan”.

2008- O`zbekiston. Toshkent. “Yo`l g’ildiragi”.

2009 - O`zbekiston. Toshkent. “Art-bazar”. YArmarka-ko`rgazma.

2009- Frantsiya. Parij. YUNESKO. Toshkent shahrining 2200 yiligiga bag’ishlangan xalq xunarmandalri va amliy san`at ko`rgazmasi.

2010- O`zbekiston. Toshkent. “Charxpalak” Xalq hunarmandlari ko`rgazmasi.

2010- Tukmaniston. Toshovuz. O`zbekiston - Turkmaniston foruma doirasida tashkil qilingan ko`rgazma.

2011- O`zbekiston. Toshkent. “Navro`z-2001” xalq ustalari Festivali.

2012- Ispaniya. Madrid-Barselona. O`zbekiston xalq ustalari ko`rgazmasi.

2012-Rossiya. Ekaterinburg. O`zbekiston alq ustalari ko`rgazmasi.

2013- Rossiya. Krosnoyarsk. Surikov nomli muzeyda O`zbekiston ipagi va sopoli.

2013- Rossiya. Novosibirsk. 9-Halqaro Sibir’ keramikasi Festivali.

2014- Rossiya. Novosibirsk. 10-Halqaro Sibir’ keramikasi Festivali.

2014- Rossiya. Suzdal’. “Dunyo kulollari” Halqaro ko`rgazma-yarmarka.

2014- O`zbekiston. Toshkent. “O`zbekiston kulolchiligi afsonalari”.

2014-Rossiya. Novosibirsk. “Ipak osmon sotida” O`zbekiston ustalari ko`rgazmasi.

2015- Avstriya. Vena. A. Nazirovning shaxsiy ko`rgazmasi.

2016 – Moskva, Rossiya. Anor gullaganda

2017 – Praga, Chexiya. Shaxsiy ko`rgazma

Yuqorida usta qatnashgan ko`rgazmalar salmog’i uning ijodi qanchalik ekanligini ko`rsatish bilan birga Rishton kulolchilik san`atini xorijda namoshiy etayotganligidan dalolat berib turadi.



Xorijlik mehmonlar Usta Alisher Nazirov uy-muzeyida



“O`rdak oftobasi”

3.2. Usta Odiljon Nigmatov ijodi misolida.

Usta Odiljon Nigmatov 1956 yilning 13 aprelida Rishton tumanidagi To`da qishlog'ida dunyoga keladi. Odiljon aka kulolchilikka bo`lgan ishtiyoqi sababli 8-sinfdan keyin o`qishini kechki maktabda davom ettirgani holda kulolchilik zavodida mehnat faoliyatini boshlaydi.



Ko`zagar usta Odiljon Nigmatov



Usta ijodiga oid turfa xil buyumlardan namunalar

1975-77 yillar davomida harbiy xizmatda bo`lib qaytgan Odiljon aka yana o`zining qadrdon zavodida, sevimli kasbi kulolchilik faoliyatini davom ettiradi. Odiljon Nigmatov Rishtonga xos bo`lgan moviy ishqorli kulolchilik sir-asrorlarini usta-kulol Axmadjon Nosirovdan o`rganadi.

996-97 yillarga kelib zavod o`z faoliyatini to`xtatish arafasiga kelib qoladi. Chunki, bu paytda Rossiyadan keltiriladigan sun`iy qo`rg'oshinli ishqor kelmay qoladi. Ko`plab katta usta-kulollar olamdan o`tib ketadi, qadimdan foydalanib kelinadigan Rishton an`anaviy ishqorini tayyorlashni esa ko`pchilik bilmaydi. Umrini kulolchilikka bag'ishlamoqchi bo`lgan yosh, shijoatli usta uchun bu holat qattiq ta`sir qiladi. Kasbiga bo`lgan kuchli mehri va ustozlardan olgan o`gitlariga tayangan holda qiyinchilik va mashaqatlarga qaramagan holda korxonaning bir chetini sotib olib, xususiy kulolchilik tsexini tashkil qiladi. Atrofiga Faxriddin Usmonov, Jahongir Muxammadiev, Xolmatali Muxammadiev, AbduvaliPo`latov, Saidjon Umrzoqov kabi shogirdlarini birlashtirgan usta ular yordamida Rishtonga xos bo`lgan kulolchilik buyumlarini chiqarishni boshlab yuboradi.

Shu o`rinda aytib o`tish lozim bo`lgan bir ma`lumot bo`lib, u ham bo`lsa Rishtonda o`tgan asr boshlarida tashkil qilingan, sobiq "Yangi hayot" nomli kulolchilik korxonasi xududida ustalardan faqatgina Odiljon Nigmatovgina shogirdlari bilan faoliyat olib boradi. Qolgan barcha ustalar esa shaxsiy xonadonlarida kulolchilik tsexlarini tashkil qilib, o`sib kelayotgan yosh avlodga kulolchilik sirlarin o`rgatib kelishadi.

Odiljon aka Mustaqil O`zbekistonning barcha viloyat va shaharlarida tashkil qilingan amaliy san`at ko`rgazmalarida muntazam ravishda faol ishtirok etib, elga taniladi. Amerika Qo`shma Shtatlari, Rossiya va shu kabi ko`plab boshqa xorijiy davlatlardan buyurtmalar oladi. Kulolchilikda erishgan yutuqlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanadi. Jumladan, qisqa muddat ichida ko`rsatgan faolligi va Vatan oldidagi mehnati uchun 2001 yili "Mustaqillikning 10 yilligi" ko`krak nishoni bilan taqdirlanadi.



Pechning ichki ko`rinishi

Ustaning to`rt nafar farzandi bo`lib, o`g'illari Sayodjon va Azizjonlar ham ota izidan borib, kulolchilik sirlarini o`rganib kelishmoqda. Qizlari Sayyoraxon va Sohibaxonlar ham ota kasbiga bo`lgan hurmatlari baland, ular ham otalari Odiljon akani qo`lida sayqal topgan buyumlarni badiiy bezash ishlarida qatnashib kelishadi.



Ustoz-shogird an`analari davom etmoqda.

Usta Odiljon akaning shogirdlari faqatgina o`zining zurriyotlari bo`libgina qolmasdan, balki boshqalar ham bor. Ular ichida katta shogirdi Faxriddin ermatov bo`lib, u 1992 yilda usta Odiljon akaga shogirdlikka tushadi. Ustani qo`lida uzoq yillar ishlab, kulolchilik sirlarini puxta egallagan Faxriddinning o`zi ham hozirga kelib usta bo`lib etishgan. Uni qo`l ostida aka-ukalar Asliddin, Misliddin, Fazliddin Umarovlar rishton kulolchilik an`analarini davom ettirib kelmoqdalar.



Xumdonning ichki ko`rinishi.




Usta bilan ijodiy muloqot.




“Qizilgul” lagan



“Oftobcha” lagan



“Anorgul” ko’za



Ушбу шажара уста Одилжон Нигматов ва бир қатор Ришton қишлоқ кулоллари кўрсатмаси асосида тузилди.

3.3. Zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda kulolchilik san`atining tutgan o`rni.

Yoshlar tarbiyasida asrlar mobaynida shakllangan milliy an`analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanaylik.

Shavkat Mirziyoev



YOshlarga berilayotgan saboqlardan lavha.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach barcha sohalarda bo`lgani kabi, hunarmandchilik sohasida ham sezilarli o`zgarishlar sodir bo`ldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 1997 yil 31 martda e`lon qilingan “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atni yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g’risida”gi Farmoni buning yorqin dalil ekanligi haqida oldin ham to`xtalib o`tgan edi. Ushbu Farmonga binoan

hunarmandlarning davlat solig'idan ozod qilinishi, ijod erkinligi, o`z mahsulotlarini erkin narxda sota olishi, xalqaro ko`rgazmalarda ishtirok etishi, badiiy tashkilotlarda qatnashishi hamda chet elda ijodiy ishlarni amalga oshirishlari davlat tomonidan kafolatlanishi belgilab qo`yilgan.

Hunarmandchilikni rivojlanishi hozirgi mehnat taqsimotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Hunarmandchilik bevosita savdo-sotiq bilan bog'liq jarayon bo`lib, aholi gavjum yashaydigan joylarda amalga oshiriladi.

Mamlakatimizning o`sishi va rivojlanishining hozirgi davrida yosh avlodni mehnatsevar, halol, mehr-muruvvatli qilib tarbiyalash bugungi kunning muhim talablaridan hisoblanadi. Ayniqsa, bu o`rinda joylar qiyofasini belgilashda shu erlarda shakllangan, taraqqiy etgan va an`anaga aylangan hunarmandchilik maktablarining barpo etilishi yoshlar tarbiyasida, ular kelajagini belgilashda, kasbiy faoliyatga yo`naltirishda, muhimi, kasb va kasb ahliga hurmat-ehtirom ko`rsatish kabi fazilatlarni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma`lumki, yoshlarga kasb-hunar o`rgatishda amaliy san`atdagi qadriyat va an`analar alohida o`ringa ega. Hunarmand usta shogirdlariga hanarning sir-asrorlarini o`rgatib borar ekan, ularda ma`lum tarbiyaviy fazilatlarni, jumladan, halol mehnat bilan pul topish, muvaffaqiyatsizliklarga bardosh berish, hunardan boylik orttirishgagina emas, balki jamiyat rivojiga hissa qo`shish, boshlagan ishini oxiriga etkazish, iqtisodiy bilim va tushunchalardan foydalanib tadbirkor va ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish hamda rost so`zlashga o`rgatib boradi.

Dunyoda qanday hunar bo`lmasin, uning ustasi va shogirdlari bo`ladi. Naqqoshlik, ganchkorlik, kulolchilik, misgarlik, pichoqchilik, bo`yrachilik, gilamdo`zlik, yog'och o`ymakorlik, savatchilik kabi hunarlarning o`ziga yarasha ustalari bo`lib, misgarlik bilan shug'ullangan ustani misgar, naqqoshlik bilan shug'ullangan ustani naqqosh, kulolchilik bilan shug'ulangan ustani esa usta-kulol deb aytilgan. SHogirdlar esa usta deb murojaat qilishgan.

Qadimda hunar va tabiiy bilimlar maktablarda o`rgatilmagan yakka shogird tartibida berilgan. Masalan:

- ota yoki ona hunarini egallash – ota-ona, oiladagi kattalardan yakka shogird shaklida;
- usta qo`lida yakka shogird shaklida;
- tsex shogirdligi, ya`ni uyushgan ustaxonalarda, tsexlarda yakka shogirdlik tartibida o`rgatilgan.

Hozirgi vaqtda milliy hunarmandchilik yanada rivojlanib kelayotgan bir paytda milliy an`analarimiz asosida ustoz shogirdiga o`z hunarini o`rgatib kelmoqda. Lekin, yoshlarimiz orasida bir usta ozgina yaxshilik qilsa, darhol uni ustoz-ustoz deb qoladilar. Aslida-chi? Usta, "Ustoz" degan nomga loyiqmi? Ustoz kim? Kimlarni biz ustoz deyishimiz mumkin? Uning vazifasi nimadan iborat? Ustozlar qadimda qanday ta`lim-tarbiya bergan? Bunday savollarga javob topishda ayrim hollarda qiynalib qolamiz.

Qadimda har bir hunar muqaddas hisoblangan bo`lib, uni hurmatlab, e`zozlab kelingan. Ota-bobolarimiz tomonidan ustoz va shogirdlar uchun o`ziga xos odob-axloq, maxsus qonun-qoidalar, urf-odatlar, madaniyat ishlab chiqilgan bo`lib, bu qoidalarga qat`iy amal qilingan. Ustoz-shogird munosabatlarida o`ziga xos irimlar, duolari, milliy an`analar mavjud bo`lgan. Ustozning ham, shogirdning ham oldiga qo`yilgan o`ziga yarasha vazifalar, burchi bo`lgan.

Xalq hunarmandchiligida, xususan kulolchilikda ustozlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlari quyidagicha bo`lgan:

Qadimdan ustozlar shaxsiy va kasbiy fazilatlarining mezoni bo`lib, unga qat`iy rioya qilib kelingan. Bu shaxsiy fazilatlar mezoni tarkibiga ustozning saxiy, odobli, mehr-shafqatli, marhamatli, ochiq yuzli, shirin muomilali, sabrli, talabchan, itoatli, qanoatli, to`g'ri so`z, poklik, muloyimlik kabi fazilatlari bilan shogirdiga namuna bo`lishi lozimligi belgilangan.

Hunarmandning kasb madaniyatiga quyidagilar kirgan:

- hunarni boylik orttirish maqsadida emas, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo`shish maqsadida o`rganish;
- hunarni mehnatsiz daromadlardan asrash;
- ustozlar an`anasiga ehtiromda bo`lish;

- pirlarning roziligini olish;
- pirlarning duosini olish;
- mehnatga loqayd bo`lmaslik;
- mehnatsevarlik, halol mehnat qilish;
- intizomli bo`lish;
- muvaffaqiyatsizlikdan tushkunlikka tushmaslik;
- hunarda aqlli tadbirkor bo`lish;
- rost so`zli bo`lish;
- pokiza bo`lish;
- bir ishni qiyomiga etkazmay ikkinchisiga o`tmaslik.

Hunarmand holi bo`lishi lozim bo`lgan xususiyatlar:

- nopok yo`llar bilan boylik orttiruvchilar bilan aloqada bo`lmaslik;
- boshqa hunarlarga nisbatan adovatda bo`lish va hasadgo`ylik, boshqalar muvaffaqiyatini ko`rolmaslik;
- jur`atsizlik, dangasalik, yalqovlik, erinchoqlik, isrofgarchilik, takabburlik, yolg'onchilik.

Ustozning kasbiy fazilatlariga o`z hunariga qiziqishi, o`z hunarini yoshlarga sidqidildan o`rgatishi, o`z hunariga yangiliklar kiritishi, shu hunari bo`yicha o`zidan keyin yaxshi, sodiq shogirdlar qoldirishi va shu kabi boshqalar kiradi.



Usta Alisher Nazirov yosh shogirdlari davrasida.

Ustozning eng yaxshi kasbiy fazilatlaridan biri shogirdlar tayyorlashdir. Har bir hunarmand ustaning shogirdi bo`ladi. Hunarmandlar o`z hunarini avloddan avlodga an`ana tariqasida o`tkazib kelganlar. Ustoz o`zidan keyin bilimdon, iste`dodli shogird qoldirmasa, uning hayoti bekor o`tdi deyiladi. Usta qanchalik mohir, o`z hunarini yaxshi bilishidan qat`iy nazar, o`z bilimini, hunarini ishonchli odamga qoldirmasa, uning ishlarini davom ettiradigan kishi bo`lmaydi. SHuning uchun ham Alisher Navoiy mashhur bir baytida quyidagi misralarni bejiz yozib qoldirmagan:

Hunarni asrabon netgumdir, oxir,

Olib tuproqqami ketgumdir, oxir!

Qadimda hunarmand va xaridor o`rtalaridagi munosabatlar odobi, mezonlari mavjud bo`lgan. Ular quyidagilardan iborta bo`lgan: savdoda poklik, halollik, adolatlilik, to`g’rilik, xushfe`llik, nafsini tiyish, kambag’al, bechoralarga xayri

ehson qilish, mahsulotning asl bahosini bilmaganlar bilan to`g'ri muomilada bo`lish, va`daga xilof ish qilmaslik, bajara olmaydigan ishga va`da bermaslik va shu kabi boshqalar.

Shu bilan birga shogirdning odob qoidasi ham mavjud bo`lgan:

- o`z ishiga yaxshi munasabatda bo`lish, ya`ni o`z hunarini sevish;
- o`z ishiga e`tiqod qo`yish va unga ishonish;
- ustoz oldida bo`lish, o`zining salbiy odatlarini tark etish;
- ko`rish lozim bo`lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish;
- eshitish mumkin bo`lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik;
- barcha noloyiq ishlardan qo`l tortish;
- ustozga ma`qul bo`lmagan kishilar bilan muomila qilmaslik.

Shogirdning ustoz oldidagi burch va vazifalari o`tmishda hunarmandlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular ustozga itoatda bo`lish, ustoz an`analarini davom ettirish, ustozning pand-nasihatlariga amal qilish, ustozdan ibrat olish, sabr-toqatli bo`lishi, irodali bo`lish, ustozning yuzini erga qaratmaslik, aksincha, uning obro`sini ko`tarish, ustoz san`atiga iliq so`zlar aytish, ustozning dushmani bilan do`st tutinmaslik, ustozning oila a`zolarini hurmat qilish, ustozning qarindosh-urug'larini hurmat qilish, ustozning ruxsatisiz hech narsaga qo`l tegizmaslik, birovning narsasiga ko`z olaytirmaslik, ustozga cheksiz hurmatda bo`lish va boshqalar.

O`tmishda ota-onalar ham farzandlariga hunar o`rgatayotgan ustozni hurmat-ehtirom qilganlar. ota-onalar va ustozlar o`rtasida munosabat madaniyati ham o`ziga xos xarakterga ega bo`lgan va ular quyidagi axloqiy tushunchalardan iborat.

Ota-onaning ustozga munosabati:

- ustozga muruvvat ko`rsatish;
- ustozning bergan tanbehini to`g'ri tushunish;
- farzandining hunar o`rganib, o`zida zarur narsalarni etkazib berish;
- ustozni rozi qilish.

Ustozning ota-onaga o`ziga xos munosabati:

- farzandga hunar o`rgatish uchun zimmasiga olgan vazifasini bajarish;
- o`z va`dasining ustidan chiqish;
- ota-onaga farzandining qobiliyati, xulq-odobi to`g'risida ochiq gapirish.

Yuqorida keltirilgan ma`lumotlar hammasi S. Bulatovning "Ustozning shaxsiy va kasbiy fazilatlari" ilmiy maqolasidan olingan[14]. S.Bulatovning o`zbek amaliy bezak san`atidagi an`analar, udumlar va ustoz-shogird an`analari haqida keltirilgan ma`lumotlari 60 bosma taboqqa yaqin hajmdagi "O`zbek xalq amaliy bezak san`ati" nomli yirik hajmdagi fundamental ilmiy tadqiqot asarida ilmiy-nazariy jihatdan batafsil tahlil etilgan. Bu ilmiy tadqiqot asarida o`zbek xalq amaliy bezak san`ati barcha turlarining tarixi, xususiyatlari, ularni tasniflovchi illyustrativ materiallar o`z ifodasini topgan. Biroq, unda ayrim san`at turlari ommabop tarzida bayon etilgan bo`lib, masalaning pedagogik va metodik jihatlari to`laqonli qamrab olinmagan[15].

Shunday bo`lsa-da, ushbu ilmiy tadqiqot asari keyingi ilmiy-tadqiqot ishlari uchun eng asosiy manba bo`lib xizmat qilmoqda. Iste`dodli olim S. Bulatov o`z shogirdlari bilan birga o`zbek hunarmandchiligini o`rganish muammolari ustida, amaliy san`atning tarixi, etnografiyasi, falsafiy, ruhiy, tarbiyaviy tomonlari bo`yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Amaliy san`atning qadriyat va an`analarining ahamiyati bugungi kun ta`lim tizimida juda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga uning badiiy va ma`naviy ahamiyatini ham nazardan qochirmaslik kerak.

Madaniyat va san`at badiiy hodisa bo`lgani uchun shubhasiz, ma`naviy ahamiyat kasb etadi. Zero, bu jarayon uzluksiz davom etuvchi jarayon sifatida san`at tarixi, uning vatan va millat tarixidagi o`rnini tadqiq etib boradi, bugungi kunni kuzatadi, ularning natijalarining sintetik tatbiqi evaziga ta`lim mazmunini takomillashtirib boradi, uning istiqbolini belgilab beradi.

---

[14] С.Булатов. "Халқ таълими" журнали, 1998, 1-сон, 64-67-бетлар.

[15] А.Амануллаев, З.Шералиев. Амалий санъатдан синфдан ташқари ишлар илмий-педагогик муаммо сифатида. – "Халқ таълими" журнали, 2007, 3-сон. 135-137-бетлар.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, san`at badiiy hodisa bo`lganligi sababli ma`naviy hodisa ham hisoblanadi va bevosita ta`lim sohasini takomillashtirib borishga o`zining ijodiy ta`sirini ko`rsatadi.

Har qanday jamiyat ta`lim-tarbiyasiz, har qanday ko`rinishdagi ta`lim-tarbiya jamiyatsiz mavjud bo`lmaydi. Aynan ana shu falsafiy ta`rif ta`limni, uni tadqiq etuvchi pedagogika fanining ijtimoiy ahamiyat va mohiyat kasb etishini xarakterlaydi. Demak, har bir jamiyatning ijtimoiy muammolari qatorida madaniyat va san`atning ta`limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq etish bilan bog'liq bo`lgan pedagogik muammolar mavjud. Uning mazmuni, ehtiyoji jamiyat taraqqiyotining ma`lum bosqichida ijtimoiy buyurtmasiga asosan belgilanadi.

Bugnugi ta`lim tizimida yoshlarga xalq amaliy san`ati vositasida badiiy-estetik tarbiya berishning o`ziga xos jihatlari mavjud bo`lib, o`z navbatida yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Chunki amaliy san`at mazmunida bizning uzoq o`tmishimiz, mumtoz merosimiz, milliy an`analarimiz mujassamlangandir. Shu bois umuminsoniy va milliy qadriyatlarni ajdodlarimizning ijodiy tajribalarini, ko`p asrlik an`analarini hisobga olgan holda ma`naviy barkamol avlodni shakllantirishda badiiy-estetik ta`lim va tarbiya muammolari ham katta o`rin egalladi. Yoshlarning yuksak insoniy fazilatlari, ajdodlarimiz ma`naviy merosiga bo`lgan qiziqishi, ulardagi u yoki bu tug'ma qobiliyat yoshlik davridayoq shakllanishi mumkin. Bu borada xalq amaliy san`ati o`ziga xos mohiyat kasb etadi. Dunyodagi barcha millat va elatlarning urf-odatlari ma`naviy va moddiy qadriyatlari mavjuddir. Har bir millat va elatning ma`naviy dunyosi axloq-odob meyorlari, uning urf-odatlarida o`z aksini topadi va shaxsning ma`naviy shakllanishiga ta`sir etadi.



Asriy an`analarni davom ettirayotgan yosh ijodkorlar.

III bob bo`yicha xulosa.

Usta Alisher Nazirov ijodidagi millliylik orqali Rishton kulolchiligiga xos an`ana va milliylikni ko`rishimiz mumkin. Ustaning 1989-2017 yillar davomida qatnashgan ko`rgazmalarining xronologik jadvalini tuzib chiqqanimizda Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'iston kabi qo`shni davlatlar bilan bir qatorda Germaniya, Rossiya, Frantsiya, Italiya, YAponiya kabi davlatlarda juda ko`p marotaba ko`rgazmalarda qatnashib Rishton kulolchilik an`analari dovrug'ini olamga tanitayotganini guvohi bo`ldik.

Usta ko`zagar Odiljon Nigmatov ijodida yoshlarga berilgan e`tiborni o`rganib, ular yordamida kulollar sulolasi shajaraksini tuzib chiqdik.

Zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda Rishtonlik kulolarning o`ziga xos tajriba maktabi sir-asrorlarini taxlil qilib, kerakli xulosalar chiqardik. Ular tomonidan tashkil qilingan tajribani ommolashtirshi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Kulolchilik san`ati va uni tarixini o`rganish insonlarni kundalik turmush tarzini, yashash sharoitini, urf-odatlarini, diniy va dunyoviy qarashlarini aniqlashga katta yordam beradi.

Sopol buyumlardan foydalanish temir, mis yoki shu kabi boshqalarga nisbatan inson salomatligi uchun foydali hisoblanadi. Qolaversa, qadimdan ota-bobolarimiz arpa, sholi, bug'doy kabi boshoqli donlarni saqlashda sopol ko`zalardan, xumlardan foydalanib kelishgan. Chunki, boshoqli donlarni sopol idishlarda saqlash jarayonida ularning sifati, tarkibi umuman o`zgarmaydi. Sabzavot va mevalar ham sopol buyumlarda yaxshi saqlanadi.

Rishton kulolchilik san`ati va uni kelib chiqish tarixi to`g'risidagi ilmiy manbaalar, ma`lumotlarni o`rganish jarayonida duch kelgan muammolarimizdan asosiysi Rishtonda arxeolgik qazishma ishlarini olib borilmaganligi bo`ldi. Shuningdek, Rishtondan etishib chiqqan usta kulollar ijodi yuzasidan fundamental tadqiqot ishlari olib borilmaganligi, ular haqidagi ilmiy manbaalarni entsiklopediya, darslik, o`quv qo`llanmalarga kiritilmaganligi bo`ldi. Hattoki, ustazodalar sulollasining shajarasi ham tuzilmagan. Rishtonlik ustalar erishgan yutuqlar, Vatanimizda va undan tashqarida qatnashgan ko`rgazmalar haqida ma`lumotlar ham kam yoritilgan. Usta-kulollarning ijod namunalarini o`rganish va ularning o`ziga xos uslubini targ'ib qilish, o`sib kelayotgan yosh avlodga etkazish kerak. Shuning uchun ham Rishton kulolchilik san`atining tarixini va bugungi kunini o`rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amaliy san`at turlari va maktablari mavzusiga bag'ishlangan birnchi bobda bobda O`zbekistonda kulolchilik sn`atining rivojlanishi, unda tarkib topgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Shaxrisabz, Andijon, G'urumsaroy, Rishton kulolchilik maktablar haqida ilmiy ma`lumotlarni taxlil qildik.

Afrosiyob, Xalchayon, Tuproqqal`a, Varaxsha kabi qadimgi o`nlab yodgorliklarni arxeologik tekshirish natijasida turli uslubdagi noyob kulolchilik buyumlari va ularni bezaklarining qarayib 2000 yil davomidagi taraqqiyot

bosqichlarini o`rganib chiqdik. Amaliy san`atdagi xususan kulolchilikdagi an`analar va xalq ustalarining pedagogik merosi, kulolchilik san`atidagi etnik-madaniy an`analar to`g'risidagi ma`lumotlar, ilmiy manbaalar taxlil qilib chiqqanimizda ustoz shogirdiga nafaqat amaliy san`atning sir-asrorlarini o`rgatgan, balki o`z shogirdlarining diliga bir qator insoniy sifatlarni singdirib borib kasbiy va ma`naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdek xayrli ishni bajarib borgani haqida ham qimatli ma`lumotlarga ega bo`ldik.

Rishtonga xos bo`lgan loy va sopolga ishlov berishning texnologik jarayoniga alohida to`xtalib o`tdik. Avloddan avlodga o`tib kelayotgan ustlarning merosini yo`q bo`lish va qayta vujudga kelishiga oid tarixi jarayonlar ham o`rganib chiqildi.

Rishton kulolchilik san`ati o`zining badiiy uslubi va ranglarining o`ziga xosligi bilan boshqa kulolchilik maktablaridan farqi an`analari va ifodaviy tilini davrlar sinovilardan omon saqlagan etuk milliy kulolchilik maktablaridan biri ekanligida ko`zga tashlanadi. Buni O`zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi usta Sharofiddin Yusupov ijodida ko`rishimiz mumkin. San`atshunos olim Akbar Xakimov usta-kulol Sharofiddin Yusupovga "Paganini" –deb bergan ta`rifini o`zidan ham kulolchilikning sehrli ohangini xis qilish va qalb qo`ri bilan uni tinglash mumkinligini bildik. Usta qulida sayqal topgan buyumlar o`zining an`anaviyligini yo`qotmagan holda zamonaviy talablarga ham to`liq javob beradi. Bu ustoz haqida, uni serqirra ijodiga bag'ishlangan teleko`rsatuv va xujjatli fil'mlar tayyorlab o`rta umumta`lim maktablari o`quvchi-yoshlari, kasb-hunar kollejlari va oliy o`quv yurtlari talabalariga etkazish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Shuningdek, usta kulol Rustam Usmonov ijodidagi milliylik an`analari, Yaponiya davlati bilan yo`lga qo`ygan hamkorlik aloqalarini darslik va o`quv qo`llanmalarga kiritish ham maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Usta Alisher Nazirov ijodidagi millliylik orqali Rishton kulolchiligiga xos an`ana va milliylikni ko`rishimiz mumkin. Ustaning 1989-2017 yillar davomida qatnashgan ko`rgazmalarining xronologik jadvalini tuzib chiqqanimizda

Qirg’iziston, Turkmaniston, Qozog’iston kabi qo`shni davlatlar bilan bir qatorda Germaniya, Rossiya, Frantsiya, Italiya, Yaponiya kabi davlatlarda juda ko`p marotaba ko`rgazmalarda qatnashib Rishton kulolchilik an`analari dovrug’ini olamga tanitayotganini guvohi bo`ldik.

Usta ko`zagar Odiljon Nigmatov ijodida yoshlarga berilgan e`tiborni o`rganib, ular yordamida kulollar sulolasi shajaraksini tuzib chiqdik.

Zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda Rishtonlik kulolarning o`ziga xos tajriba maktabi sir-asrorlarini taxlil qilib, kerakli xulosalar chiqardik. Ular tomonidan tashkil qilingan tajribani ommolashtirshi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Olib borgan tadqiqot ishimiz natijalari darslik, o`quv qo`llanmalarga kiritilishi keyingi tadqiqot ishlari samaradorligini oshiradi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. “Xalq so`zi” gazetasi, 2011. 22 yanvar.
2. Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi –T.: O`zbekiston, 2010. 56 b.
3. Karimov I.A. O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari - T., O`zbekiston. 1995l.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin -T.: O`zbekiston. 1996. 240 b.
5. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: O`zbekiston, 1993.- 320 b.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz – T.: O`zbekiston, 2000. – 525 b.
7. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo`lida –T.: O`zbekiston, 2008. – 368 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat–yengilmas kuch–T.: Ma`naviyat, 2008.168 b.
9. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” – T.,
10. Abdullaev N. Istoriya iskusstv – T.: O`qituvchi, 1986. 208-bet
11. Asqarbek Akparov. Farg’ona vodiysi arxitekturasida amaliy san`atning ma`naviy – estetik ahamiyati. - N.: 2007. 3-bet
12. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1997 yil 31 martdagi “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g’risida”gi PF-1741-sonli Farmoni.
13. Isaboeva G. XIX asrda Qo`qon xonligida madaniy hayot. Tarix fan. nom. diss. – T.: O`zMU, 2008. B.142.
14. Temirxodjayev Dj., Po`latov B. O`zbekistonning mashhur kulolchilik maktablari. Tarix tafakkuri. Tarixchi olimlarning ilmiy-amaliy maqolalar to`plami. VIII jild. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – B.155-158
15. Inson manfaatlari hamma narsadan ustun. –T.: “Extremum-press”, 2017. 96 bet.

16. Sovet O`zbekiston san`ati 1987 № 7. G'urumsaroy kulollari. A.A.Xakimov
17. O`zbekiston Adabiyoti va san`ati 1992 № 47. Kulolchilik rivoyatini tinglab. M.Axmedov.
18. Pop tuman gazetasi 1993 yil №22 G'urumsaroy kulolchiligi. M.Matkarimov
19. Pop tuman gazetasi. 1993 yil № 22. Qo`sh san`at sohibi M.Matkarimov.
20. Pop tuman gazetasi 1993 yil 29 sentyabr. G'urumsaroy M.Matkarimov
21. Pop tuman gazetasi 1997 yil 30 may №22 G'urumsaroy kulolchiligi. M.Matkarimov.
22. Xalq amaliy san`ati. 1997 yil 30 may "22-sonli
23. P.Sh.Zohidov. Me`mor san`ati. –T; G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1978, 35-bet.
24. S.Bulatov. O`zbek xalq amaliy bezak san`ati. –T; "Mehnat", 1991, 142 b.
25. P.Sh.Zohidov. Me`mor san`ati. –T; G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1978, 35-bet.
26. Elmira Gul. Amaliy san`atda etnik-madaniy an`analar. San`at-98. 1-3-sonlar. 33-bet
27. San`at -98. O`zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali № 1-3, 32-33-betlar.
28. Surayyo Alieva. Rishtonning moviy sopoli. San`at -98. № 1-3, 34-bet.
29. Xalq hunarmandlari. Sovet O`zbekiston san`ati. 1987 yil №7-sonli
30. S.Bulatov. "Xalq ta`limi" jurnali, 1998, 1-son, 64-67-betlar.
31. A.Amanullaev, Z.SHeraliev. Amaliy san`atdan sinfdan tashqari ishlar ilmiy-pedagogik muammo sifatida. – "Xalq ta`limi" jurnali, 2007, 3-son. 135-137-betlar.

Prezident Farmonlari va xukumat qarorlari:

1. "O`zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida"gi farmoni. – T., O`zbekiston. 1997 yil 23 yanvar.
2. "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atni yanada rivojlantirish davlat chora-tadbirlari to`g'risida"gi farmoni. – T.; O`zbekiston. 1997 yil 31 mart.

3. “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g’risida”gi farmoni. – T.; 1998 yil 12 yanvar`

Xorijiy adabiyotlar

1. G. Derviz, L. Jadova, I. Jdanko, D. Mitlyanskiy. “Sovremennaya keramika narodnix masterov Sredney Azii”. Al’bom. - M.; 1974.
2. A. Xakimov.. “Sovremennaya dekorativnoe iskusstvo respublik Sredney azii”. - T.; 1988.
3. Pesherova E.M. Goncharnoe proizvodstvo Sredney Azii.–M-L.; 1989.–240 s

Internet ma`lumotlari.

www.uzinfoinvest.uz - «O`zaxborotinvest» agentligining rasmiy sayti.
www.review.uz – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti
www.eurasianews.com – EvroOsiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy cayti
www.vip.lenta.ru – Internet nashriyoti
http://www.chemport.ru/acid=42
http://www.chemport.ru/acid=42
http://lib.mexmat.ru/books/8672/
content.mail.ru/arch/13081/1002506.htm
www.Ziyo.net

Tadqiqot natijalariga asosan chop qilingan ilmiy maqolalar:

1. B. Jabbarov, A.Abdullaev. Rishton kulolchilik san`ati va an`analari. Ta`lim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar to`plami. II qism. T,; 2016. 200-204 bb
2. A.Abdullaev. Moxir kulol, usta Rustam Usmonov ijodida milliylik (Ta`lim va texnologiya. Ilmiy-uslubi maqolalar to`plami. IV qism. T.; 2016. 326-328 b.b)
3. A.Abdullaev. Usta Alisher Nazirov ijodida milliylik. (Ta`lim va texnologiya. Ilmiy-uslubi maqolalar to`plami. I qism. T.; 2017. 223-226 b.b)
4. A.Abdullaev. Rishtanskiy gonchar-usta Rustam Usmonov. Nauchno-metodicheskiy jurnal – NOVOINFO.RU. 2017. №61.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Fakul'tet: Pedagogika
Kafedra: Tasviriy san`at va Muxandislik Grafikasi
O`quv yili: 2016-2017

Magistratura talabasi: Abdullaev A.
Ilmiy rahbar: dotsent Jabbarov B.
Mutaxassisligi: 5A110801 – Tasviriy san`at va amaliy-bezak san`ati

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI A N N O T A TS I YASI

Mavzuning dolzarbligi. Kulolchilik san`ati o`zining badiiy-estetik qiymati va kundalik ehtiyojimizni qondiruvchi vosita sifatida ham o`ziga xos o`rin egallaydi. Amaliy san`atning tarkibiy qismi, jahon san`atining bebaho durdonasi bo`lgan kulolchilik san`ati qadimdan san`atshunoslar, xalq ustalari tomonidan katta qizish bilan o`rganib kelingan. Jumladan, kulolchilik san`ati bo`yicha Po`lat Zoxidov, Akbar Xakimov, Saidaxbor Bulatov, Asqarbek Akparov, Surayyo Alieva, elmira Gul kabi olimlarimiz tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Biroq, Rishton kulolchiligi haqida gap ketganida uning o`rganilganlik darajasini qoniqarli darajada deb bo`lmaydi. CHunki, juda ko`plab ilmiy manbaalarda O`zbekiston kulolchilik san`ati deb Samarqand, Buxoro, Xiva, Rishton kabi kulolchilik maktablari yodga olinadi. Ammo, Rishton kulolchilik san`atining o`ziga xos tomonlari va uning etakchi vakillari haqida esa ikki-uch nafar olimlarimizning gazeta va jurnallardagi ilmiy maqollalarini ko`ramiz xalos. Rishton kulolchilik san`ati, unda tashkil qilingan uslub va badiiy ifoda tilini yaxshi o`rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Rishton kulolchilik san`ati o`zbek xalq amaliy san`atning ajralmas bir qismi bo`lib, avloddan-avlodga o`tib kelayotgan qadimiy uslub va an`analarini saqlabgina qolmasdan unga zamonaviylik bag'sh etgani bilan ham unga qiziqish katta hisoblanadi.

Bundan tashqari, o`zbek turizmini rivojlantirishda, jumladan, Farg'ona vodiysiga xorijlik sayyoxlarni jalb etishda Rishton kulolchilik san`atining o`ziga

xosligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu kulolchilik san`atining o`ziga xosligi, uning etakchi vakillari, ishlash texnologiyasi to`liq o`rganish maqsad qilib olindi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun kulolchilik san`atidagi etnik-madaniy an`analar, xalq ustalarining pedagogik merosini o`rganish, Rishtonlik usta-kulollar hayoti va ijodi, ustaxonalar faoliyati, ular zamirida tashkil qilingang uy-muzeylar, ko`rgazma kataloglari, gazeta va jurnal materiallari, muqaddam olib borilgan tadqiqot ishlari, xorijlik hamkorlar bilan olib borilayotgan aloqalar hamda zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb-hunarga o`rgatishda kulolchilik san`atini tutgan o`rnini aniqlash vazifalari belgilangan.

**Tadqiqot ob`ekti va predmeti.** Magistrlik dissertatsiyamizning ob`ekti – Rishton kulolchilik san`ati va uning paydo bo`lishi tarixi, asarlardan asrlarga o`tib kelayotgan an`anaviy ustoz-shogird maktabi, mashxur usta-kulollarning tajribalari va ularni bugungi kundagi ahamiyati, zamonaviy maktab yaratgan mashxur usta-kullollar va kulolchilik san`atini Rishtonda rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta`sir etgan tarixiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlar bo`lib, ilk paydo bo`lgan vaqtdan to hozirga qadar bo`lgan jarayonni o`zida aks ettirgan davlat xujjatlari, gazeta, jurnal materiallari tadqiqot predmeti bo`lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning usullari va uslublari. Magistrlik dissertatsiyasini yoritish jarayonida O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov va Prezidentimiz SH. M. Mirziyoevlarning asarlari hamda Farmonlarida xalq amaliy san`ati va xunarmandchilikni yanada rivojlantirish yuzasidan qo`yilgan talablardan kelib chiqqan holda Rishton kulolchilik san`atini haqqoniy o`rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asoslangan tarzda yoritish yotadi.

Jumladan, “Ma`naviy g’oya targ’iboti va ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish to`g’risida”gi № 451-sonli qaror milliy qadriyatlarimizning asrab avaylash, yo`qolib ketayotgan urf-odatlarimizni, san`at tariximizni tiklash, ona yurtga muhabbat, sadoqat tuyg’ularini yoshlar ongiga singdirish vazifasini qo`yadi. Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganidek, “Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o`zi

tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi".

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi.

Rishton kulolchilik san`ati va uni tarixi, rivojlanish bosqichlari, mashxur usta-kulollar faliyatini o`rganishga oid ko`plab ilmiy ma`lumotlarni mazkur magistrlik dissertatsiyasida bir tizimga solib tadqiq etilganligi tadqiqotning ilmiy yangiligi hisoblanadi.

Rishtonga xos bo`lgan badiiy uslub va an`analar, sopolga ishlov berish texnologiyasi hamda ularni hozirga qadar etib kelishida umrlarini sarflagan mohir usta-kulollar haqida ko`plab dalillar keltirilgan va ustazodalar avlodining shajaralari tuzib chiqilgan. Ustalarning uy-muzeylari, ular tomonidan xorijda tashkil qilib kelinayotgan ko`rgazmalar haqidagi ilmiy ma`lumotlar tizimli taxlil qilingan.

Ish tuzilishi va tarkibi. Dissertatsiya betda bayon etilgan bo`lib, kirish qismi, uchta bob, to`qqizta paragrif, xulosa, foydalanilgan manbaa va adabiyotlar hamda ilovalardan iborat.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Dissertatsiya mavzusi bo`yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasi sifatida Rossiya davlatining NOVAINFO jurnalining 2017, №61, t.1 sonida "Rishtanskiy gonchar- usta Rustam Usmanov", "Ta`lim va texnologiya" ilmiy-uslubiy maqolalar to`plamining 2016 yil II qismida "Rishton kulolchilik san`ati an`analari" (B. Jabbarov bilan hammmualiflikda), "Ta`lim va texnologiya" jurnalining IV qismida "Moxir kulol, usta Rustam Usmonov ijodida milliylik", mazkur to`plamning 2017 yil 1 qismida "Usta Alisher Nazirov ijodida milliylik" mavzusida 4 ta maqola chop etilganligida o`z aksini topgan.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashgan ifodasi. Mazkur tadqiqot ishida Rishton kulolchilik san`atining kelib chiqish tarixi, ustazodalar va ular tomonidan amalga oshirilayotgan ijodiy ishlar, sopolga ishlov berishning o`ziga xos texnologiyasini to`liq ochib berishga harakat qilingan. Olib borilgan tadqiqot

davomida aniqlangan ayrim quyidagi muammolarni kelgusi tadqiqotlarda inobatga olishni taklif qilinadi:

1. Rishton kulolchilik san`atining qadimiyligini ashyoviy dalillar asosida isbotlash maqsadida arxeologik qazishma ishlarini amalga oshirish.
2. Rishton kulolchilik san`ati haqidagi ilmiy ma`lumotlarni darslik va o`quv qo`llanmalarga kiritish.

Ilmiy rahbar: **B. G'. Jabbarov**

Magistratura talabasi: **A. H. Abdullaev**

Namangan davlat universiteti
5A110801-“Tasviriy san`at va amaliy-bezak san`ati “
magistratura mutaxassisligi bitiruvchisi
Abdullaev Alimardon Haydarovichning
“Rishton kulolchilik sana`tida milliylik va zamonaviylik” mavzusidagi
magistrlik dissertatsiyasiga

ILMIY RAHBAR XULOSASI

Abdullaev Alimardon Haydarovich tomonidan bajarilgan “Rishton kulolchilik sana`tida milliylik va zamonaviylik” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi Oliy ta`lim muassalari magistratura mutaxassisliklarining magistrlik dissertatsiyasi to`g’risidagi nizom talablari asosida yozilgan va mavzu to`liq yoritib berilgan.

Ishning asosnomasida mavzu muammosining o`ziga xos dolzarblik jihatlari ishonchli dalillar bilan asoslangan, muammoning o`rganilganlik darajasi, Rishton kulolchilik san`atining kelib chiqishi, tarixi va bugungi kundagi holati ilmiy jihatdan talqin etilgan.

Ishning birinchi bobi ”Amaliy san`at turlari va maktablari”-deb nomlanib, unda kulolchilik san`atining rivojlanishi, tarkib topgan uslub va maktablar, amaliy san`atdagi an`analar va xalq ustalarining pedagogik merosi, kulolchilik san`atida etnik-madaniy an`analar yoritib berilgan.

Ikkinchi bobi “Rishton kulolchilik san`ati: silohat va an`analar”-deb nomlanib, unda Rishton kulolchilik san`atining o`ziga xos tomonlari, o`zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, O`zbekiston respublikasida xizmat ko`rsatgan san`at arbobi SHarofiddin YUsupov va mohir kulol usta Rustam usmonovlar ijodida milliylik yoritib berilgan.

Uchinchi bobi “Mustaqillik yillarida kulolchilikka berilgan e`tibor” masalasiga qaratilgan bo`lib, unda usta Alisher Nazirov va usta Odiljon Nigmatovlar ijodi hamda zamonaviy ta`lim tizimida yoshlarni kasb –hunarga yo`naltirishda kulolchilik san`atining tutgan o`rniga alohida e`tibor qaratilgan.

Ishni bajarishda Rishton kulolchilik san`ati haqidagi ilmiy manbaalar, gazeta va jurnal materiallari, ustalarning avloddan-avlodga o`tib kelayotgan o`ziga xos

an`analari, ustoz-shogird tizimi, kulolchilik texnologiyasi muallif tomonidan etarli darajada o`rganib chiqilgan. Muqaddam biror marotaba qilinmagan ustazodalarning shajarasi tuzib chiqilgan. Ko`plab ustalarning uy-muzeylari bilan yaqindan tanishib, ularga tashrif buyurayotgan xorijlik mehmonlarning ham fikr-mulohazalari berilgan. Xorijda tashkil qilinayotgan ko`rgazmalarda Rishtonlik kulolar tomolnidan erishilgnan yutuqlar ham bayon qilingan. YUqoridagilar asosida ilmiy xulosalar chiqarilgan va kerakli tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mavzu materiali asosida xorijda bitta va yurtimizda uchta maqola chop qilgan.

Ish ayrim stilistik va orfografik hato va kamchiliklardan holi emas, shunga qaramasdan mustaqil izlanish natijasi va tugallangan tadqiqot ishi sifatida e`tiborga molik hisoblanadi.

Abdullaev Alimardon Haydarovich tomonidan bajarilgan “Rishton klolchilik san`atida milliylik va an`anaviylik” mavzusidagi dissertatsiya ishi oliy ta`lim va o`rta maxsus ta`lim vazirligining magistrlik dissertatsiyalarini bijarishga qo`yilgan talablarga javobberadi deb hisoblayman.

Ishnit shu tarzda ochiq himoyaga tavsiya etishni lozim deb topaman hamda dissertatsiyani yuqori savqiyada tayyorlanganligini tasdiqlayman.

Ilmiy rahbar: dots. B. G’. Jabbarov